

Alimova Zulfiya Karimovna



00:12 ✓✓

MAKTABGACHA PEDAGOGIKA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI SHAHRISABZ FILIALI

Alimova Zulfiya Karimovna

“MAKTABGACHA PEDAGOGIKA”

(o'quv qo'llanma)

ISBN 978-9943-6034-0-0

«ILM ZIYO ZAKOVAT»

Toshkent – 2021

UO'K: 821.222.33

38.6-5ya73

S 33

Alimova Zulfiya Karimovna. "MAKTABGACHA PEDAGOGIKA".
O'quv qo'llanma. — Toshkent: "Ilm ziyo zakovat" nashriyoti, 2021 yil. 128 b.

ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv qo'llanmada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ularga ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tushunchalari, qonun-qoidalar va amalga oshirish vosita metodlarini MTTda to'liq hamda qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish haqida nazariy ma'lumot va uslubiy ko'rsatmalar berildi. O'qituvchi-tarbiyachining jamiyatda tutgan o'рни hamda maktabgacha ta'limning maktab, oila, mahalla bilan hamkorligi, har bir mavzu yuzasidan amaliy ijodiy topshiriqlar berildi.

Mazkur o'quv qo'llanmadan pedagogika ta'lim yo'nalishidagi oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar hamda talabalar, shuningdek, MTT tarbiyachilari ham keng foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Gavhar Jampesova — TDPU, "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

Abduqahhor G'aniyev — TDPU, Shahrisabz filiali direktori, f.f.n., dotsent

ISBN 978-9943-6034-0-0

© Alimova Zulfiya Karimovna

© «Ilm ziyo zakovat» 2021 й.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizom maktabgacha ta’limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta’limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg‘or xorij tajribalarini tadbiq qilish imkononi beradi. Bu albatta davlat rahbarining maktabgacha ta’lim sohasida chiqarayotgan qarorlari va e’tiborlari natijasidir. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi. Qanday qilib ta’lim jarayonini mushkullikdan quvonchli jarayonga aylantirsa bo‘ladi? Shuni aytib o‘tish joizki, sifatli ta’lim birinchi navbatda ta’lim beruvchi tarbiyachi, pedagogning kasbiy mahoratiga bog‘liqdir.

Albatta mashg‘ulotlar tarkibiga yangiliklarni kiritish, ilg‘or ish uslublari va metodlarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga olib keladi. Bu esa o‘z o‘rnida pedagogdan kasbiy mahorat talab etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi.

“Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida e’tibor qaratildi.

I-BO'LIM.

BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIMGA TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.

1. MAKTABGACHA TA'LIMGA KIRISH

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, bola, shaxs, rivojlanish, xorij tajribalari, yondashuv, Konsepsiya.

Bugungi kunda jahonning ilg'or mamlakatlarida ta'lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning pirovardida inson paydo bo'lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya va o'qitishni yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undalmoqda. Bunda yosh ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o'zaro bog'langan va harakatdagi tizimini yaratish e'tiborga molikdir. Bu tizimni o'rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi.

Respublikamiz maktabgacha ta'lim tizimi sohasida ham ilg'or xalqaro tajribalarni ommalashtirish, tizimda faoliyat ko'rsatadigan pedagog xodimlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini taklif qilish, maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablarini bajarish yo'nalishlarini belgilab berish, maktabgacha ta'lim dasturlarini takomillashtirishga oid takliflarni ilgari surish, sohaga oid davlat siyosatini amalga oshirishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalarni belgilab olishga e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muaassasadir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar tishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti.

Aytish kerakki, bu o'ta muhim va dolzarb vazifalarni tez va sifatli bajarish Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning doimiy e'tiborida bo'lmoqda. 2017 yil 9 sentyabr kuni qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ushbu fikrimizning amaliy ifodasidir.

Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTT lar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb va zifalarni bajarishi nazarda tutilgan.

Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

2018 yil 1 yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etilishi ham sohada o'ziga xos yangilik, deyish mumkin. Buning uchun investorlarga yer uchastkalari, bo'sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratiladi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'lxaritasi" tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

E'tirof etish joizki, ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim

Konsepsiyasida¹ ular quyidagicha izohlanadi: maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining xuquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim muassasalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda. Moliya institutlari ishtirokida investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda, maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion va tajriba-sinov ishlari sezilarli darajada kuchaymoqda. Biroq ushbu jarayonlarga muvofiqlashtirish, yaxlit tizim sifatida faoliyat ko'rsatish uchun uning keng qamrovli natijalarining monitoringi asosida samaradorlik darajasini aniqlab borishning optimal mexanizmini ishlab chiqish, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar ham maktabgacha ta'lim muassasalardagi ta'lim jarayoni va uning samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi maxsus tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi. Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o'qitish darajasi hamda sifatini o'rganishga, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari tashkil etildi. Tahlil mamlakatimizda uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini tizimida sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilganligini ko'rsatdi. Hozirgi zamon talablari va standartlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirishga, ularni qayta qurish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, Davlat byudjetidan moliyalashtirishga tobora ko'proq ahamiyat berilmoqda. Oxirgi 3 yilda ajratilgan mablag'larning hajmi 2 baravar ortdi. Tahlil natijalariga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o'qitish darajasi hamda sifatini o'rganishga, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari ushbu sohada bir qator foydalanilmagan imkoniyatlar va ishga solinmagan zaxiralar mavjudligini ko'rsatdi.

“Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at qarori bilan tasdiqlangan.

Maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari bolalarni individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ilk va maktagacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid davlat talablari asosida hamda davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish,

bolalarni ilk rivojlantirish masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirishdan iboratdir.

Kompetensiya- bolaning bilim, ko'nikma, malakalari majmuidir.

Maktabgacha yoshdagi umumiy muhim kompetensiyalar: kommunikativ kompetensiya, o'yin kompetensiyasi, ijtimoiy kompetensiya, bilish kompetensiyalaridan iboratdir.

Kommunikativ kompetensiya- muloqat vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasidir.

O'yin kompetensiyasi-bolani o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalarni ijodiy foydalanishi, o'quv tarbiya faoliyati uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya-hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

Bilish kompetensiyalaridan iboratdir-atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma malakalardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilishda foydalanish.

O'quv tarbiya faoliyatining maqsadi: bolaning umumiy kompetensiyasi va rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish uchun sharoit yaratishdir.

O'quv tarbiya jarayonining tamoyillari:

Bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyati va salohiyatlarini hisobga olish.

O'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish.

Milliy an'analar, qadriyatlarga va boshqa millat madaniyatiga hurmat, ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

MTT ning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi.

Bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash.

Bolaning sog'ligini saqlash va mustahkamlash, uning ehtiyojlarini, shu jumladan harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash.

Bolaning ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishdan iboratdir.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda dastur quyidagi hujjatlarni tavsifa etadi:

Davlat talablari.

Davlat dasturi.

Yillik mavzuli reja.

O'quv tarbiyaviy ishni haftalik rejalashtirish.

Bolaning rivojlanish xaritasi.

Bola rivojlanishi kuzatuv kundaligi.

Yangi dasturning afzalligi quyidagilardan iborat:

- Bolalarni bilim olishga o'rgatish emas, qiziqishlarini oshirish.
- Ilk bora MTT da mavzuli rejalashtirish belgilangan.

- Ilk bora bolani rivojlantirish xaritasi tavsiya etilgan.
- Har bir MTT o'zining variativ dasturini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2018-2019 o'quv yilida guruhlarda "Ilk qadam" davlat dasturi asosida mavzuli yillik, haftalik rejalar, har bir guruh uchun ish jurnali, bolalarni qayd etish daftari, bolaning rivojlanish xaritasi hujjatlari tuzildi. Bu dastur bolani to'liq kuzatish, u bilan individual ishlash, qiziqqan faoliyati bilan shug'ullanishiga imkon yaratmoqda.

Ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishdan maqsad-maktabgacha ta'lim muassasasi dasturining bajarilishini ta'minlashdir. Rejalashtirish jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, ularning yoshiga ko'ra pedagogik ta'sir mazmuni va usullarini tanlashga yo'llangan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish murakkab jarayon bo'lib, tarbiyachidan bolalarni ruhiy fiziologik taraqqiyot darajasi to'g'risidagi bilimlarni, ta'lim-tarbiya dasturini, ta'lim-tarbiya metod va usullarini bilish kerak. Tarbiyachi rejalashtirgan hamma ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash lozim. Muassasaning, tarbiyachilarning me'yoriy hujjatlari "Ilk qadam" davlat dasturi hamda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" da belglab qo'yilgan.

Ta'limiy jarayonda mashg'ulotlarning samaradorligi va tushunarli bo'lishi tarbiyachining nutqi, mahoratiga va ijodkorligiga bog'liqdir.

Agar tarbiyachi mashg'ulotlarga ijodiy yondashib, guruhdagi har bir bolaning alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini interfaol usullardan foydalanib tashkil etsa yaxshi samara beradi. Interfaol usullarning o'ziga xos jihati shundaki, bu usullarni qo'llaganda har bir bola individual shug'ullanishi, kichik guruhlar bilan ishlash, tarbiyachi va bolalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi uchun imkon yaraladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular foydalanuvchilarda qiziqishni orttirib, mustaqil fikrlashga undaydi. Bugungi kun tarbiyachisidan mashg'ulotlarni belgilangan tartibda emas, bola ehtiyoji va qiziqishlarini hisobga olgan holda ijodiy yondashib tashkil etish talab etiladi. Bu esa o'z o'rnida bolaning mustaqil fikrlashga, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ko'mak beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida "Guruhlashtirish", "Kichik guruhlar bilan ishlash", "Tarmoqlash" metodlaridan foydalanish qo'l keladi.

Bu texnologiyalar orqali bola tafakkuri boyib, sensomotorikasi va mayda motorikasi rivojlanadi, diqqati jamlanadi.

Quyida, mashg'ulotlar jarayonida foydalanish lozim bo'lgan multklaster va Veen diagrammasi haqida to'xtab o'tamiz.

Klaster usuli-"Tarmoqlar" degan ma'noni anglatib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, atamalar va tushunchalar,

voqealarni bir-biri bilan bog'liqligini anglab yetishga o'rgatuvchi usul hisoblanadi. Bu usul asosan mashg'ulotlarning yakuniy qismida, olingan bilimlarni mustahkamlashda qo'llaniladi.

Multiklaster o'yinida bolalarga multfilm qahramonlaridan iborat klaster taqdim etiladi. O'yinning maqsadi: bolalar xayolan tasavvur qilishga, topqirlikka, nutqi ravon bo'lishiga, so'zlarni topib gapirishga, gap tuzishga o'rgatiladi. Bu bolalarda fikrlash qobiliyatini kengaytirishga, ruhiy rivojlanishiga yordam beradi. Bunda bolaning ko'rish sezgisi, fikr va xayo tezligi, nutqi va tafakkuri rivojlanadi. Bolalar tasavvur qilishga, o'ylashga, va asosiysi fikrlashga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
3. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli Qarori.
4. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qaror
5. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan "Davlat talablari". 2018 yil 3 iyul.
6. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. 2018yil 7iyul

2. MAKTABGACHA TA'LIM-UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINING BOSHLANG'ICH BO'G'INI.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart!" degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi hamda qalbidan mustahkam o'rin egallaganini, bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlar, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarni mantiqiy yakuniga yetkazish, yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash eng muhim vazifa ekanini alohida ta'kidlaydi.

Zero, har tomonlama sog'lom avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining

ustuvor yoʻnalishi boʻlib, bu borada shakllantirilgan mustahkam tashkiliy-huquqiy asos bolalarning zamon talablariga mos ravishda taʼlim olishi, munosib sharoitda kamolga yetishi, iqtidor va salohiyatini namoyon etib, rivojlantirishi uchun zamin yaratmoqda.

Prezidentimizning 2016-yil 30-dekabrda qabul qilingan “2017 — 2021-yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, taʼbir joiz boʻlsa, ana shu ezgulik yoʻlidagi yana bir dadil qadam sanaladi.

Mazkur hujjat maktabgacha taʼlim tizimining moddiy-texnika bazasini kuchaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan taʼminlash, taʼlim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, pirovardida bolalarni maktabga tayyorlashni sifat jihatidan yanada yaxshilashga qaratilganligi bilan gʻoyatda ahamiyatlidir. Unda respublika boʻyicha bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli boʻlgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish, 3 — 6 yoshdagi maktabgacha taʼlim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qoʻllanmalar bilan taʼminlash orqali maktab taʼlimiga tayyorlashni samarali yoʻlga qoʻyish, maktabgacha taʼlim muassasalari davlat tarmogʻi bilan bir qatorda, nodavlat maktabgacha taʼlim muassasalarini kengaytirish boʻyicha puxta chora-tadbirlar oʻz ifodasini topgan.

Chindan ham, bolaning ongu tafakkurini rivojlantirish va umumtaʼlim maktabiga tayyorlashda maktabgacha taʼlim muassasalarining roli hamda ahamiyati beqiyosdir. Shu maʼnoda, mazkur qarorga muvofiq, Maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha 2017 — 2021 yillarga moʻljallangan dasturning ijroga yoʻnaltirilishi ilgʻor xorijiy tajribani hisobga olgan holda, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, buning uchun, avvalo, ushbu muassasalarga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning oʻquv reja hamda dasturlarini takomillashtirish, tizimda innovatsion yondashuvlarni ragʻbatlantirish singari ustuvor maqsadlarni roʻyobga chiqaradi.

Uzluksiz taʼlim tizimining boshlangʻich va muhim boʻgʻini hisoblangan maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiquvchi Dasturning toʻliq hamda sifatli bajarilishida parlament nazoratining taʼsirchan mexanizmlarini amalga oshirish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari oldida turgan asosiy vazifalardan biriga aylandi. Umuman, bu yoʻnalishdagi meʼyoriy-huquqiy hujjatlar, davlat va hududiy dasturlar ijrosini nazorat-tahlil tartibida oʻrganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, yosh avlod manfaatlarini har taraflama kafolatlashga qaratilgan saʼy-harakatlar qamrovini va surʼatini yanada jadallashtirish zarur.

Unutmaylikki, bugun kamolga yetayotgan farzandlarimiz — ertamiz egalari davlat va jamiyat salohiyatini, taraqqiyotini belgilab beruvchi kuchdir.

Mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan hozirda uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish va faoliyatini takomillashtirish, tarbiyalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini e'tirof etishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, o'tgan yillar mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog xodimlarning, maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaga mas'ul xodimlarning mehnatini rag'batlantirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.

Masalan, 1993-yilga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachisi va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnatiga haq to'lash miqdori bir xil bo'lgan bo'lsa, Hukumatning alohida qarorlari bilan hozirga qadar umumta'lim maktablari pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash miqdorlari bir necha marta oshirilgani holda maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ish haqi miqdorlari o'zgarishsiz qoldirilganligi hisobiga ularning o'rtacha ish haqi miqdori umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisiga nisbatan 60 foizni tashkil etadi, xolos.

Bu esa, o'z navbatida, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari iste'dodi, kasb mahorati va ish faoliyatida shaxsiy hissiy namoyon bo'lmasligiga hamda muassasaning pedagogik salohiyatini pasaytirishga olib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori aynan maktabgacha ta'lim sohasida yuqorida qayd etilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida qabul qilingan. Mazkur qaror bilan maktabgacha ta'lim muassasalari ayrim xodimlarining ish haqi to'lovlarini quyidagi miqdorlarda 2 ta bosqichda oshirish ko'zda tutilgan:

1. 2018 yil 1 martdan – mudir, tarbiyachi, uslubchi, o'qituvchi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari va tarbiyachi yordamchisi 30 foizga;

2. 2018 yil 1 sentyabrdan:

oliy ma'lumotga ega bo'lgan tayyorlov guruhi (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) tarbiyachisi, o'qituvchi, defektolog, psixolog 30 foizga;

oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan tarbiyachi yordamchisi 20 foizga;

maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri 10 foizga.

Buning natijasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat qilayotgan jami 93555 nafar xodim, shundan 4908 nafar mudir, 3924 nafar oliy ma'lumotli tarbiyachi, 39523 nafar o'rta maxsus ma'lumotli tarbiyachi, 673 nafar metodist, 3765 nafar defektolog, 1450 nafar psixolog, 33259 nafar tarbiyachi yordamchisi va 7503 nafar musiqa rahbarining ish haqlari sezilarli darajada oshiriladi.

Ushbu qarorda 2018-yil sentyabr oyidan boshlab oliy ma'lumotga ega bo'lgan tayyorlov guruhi (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) tarbiyachisi mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari miqdori umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari

o'qituvchilarining bazaviy tarif stavkalari miqdoriga tenglashtirilishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, qaror bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida hamda qishloq joylardagi aholi turmush darajasini inobatga olib, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor, Qamashi, Chiroqchi, Nishon, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, Shofirkon, Qorako'l, Peshku va Romitan tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Qiziriq, Muzrabot, Oltinsoy, Boysun, Qumqo'rg'on, Uzun, Sariosiyo tumanlarida joylashgan davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida 2023-yilning 1-yanvarigacha ota-onalar badal to'lovi miqdorini 50 foizga kamaytirish nazarda tutilgan.

Hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim tizimida mehnat qilayotgan xodimlarning moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi hamda qishloq hududlarda bog'chalar uchun ota-onalar to'lovining keskin pasaytirilishi maktabgacha yoshdagi bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasini oshirishga hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
3. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli Qarori.
4. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qaror

3.MTTDA KUNDALIK FAOLIYATINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA REJALASHTIRISH:NATIJA QANDAY?

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari hamda "Ilk qadam" Davlat dasturi asosida har bir guruh bolalarning kundalik faoliyatini integratsiyalashgan rejalashtirish samarali ish tashkil etishga imkon yaratadi. Rejalashtirish pedagoglar vazifalari va majburiyatlari borasida chalkashliklar kelib chiqmasligida yordam beradi. Bunday hamkorlikni amalga oshirish uchun pedagogik jamoa yig'ilishlarini har haftada bir marta o'tkazish lozim.

O'quv rejasining mazmuniga ko'ra tarbiyachi 3yoshli bolalarga 6 yoshli bolalarga qaraganda ancha oddiy, soda, aniq-ravshan va sensor mashg'ulotlar zarurligini bilishi kerak. Uzoq va qisqa muddatli o'quv rejalarining ahamiyatini ham xuddi shunday anglagan holda amalga oshirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda pedagoglar jamoasi butun o'quv yiliga mo'ljallangan vazifalarni

belgilaydi. Tarbiyachilar maktabgacha ta'lim muassasasiga birinchi marta qadam qo'ygan bolalarni qanday kutib olish, ularning o'zlarini bemalol his etishlari uchun nima qilish kerakligi, ota-onalarni pedagogik faoliyatga qanday jalb etish kabi masalalarni muhokama qiladilar. Uzoq muddatli rejaga muayyan guruhdagi har bir mashg'ulot kiritilavermaydi. Shu bilan bir paytda u kelgusi yilda amalga oshiriladigan asosiy tadbirlarni belgilab olish imkonini beradi. Uzoq muddatli rejalar bolalarning rivojlanishdagi asosiy bosqichlarni belgilashga imkon yaratadi: pedagoglar ana shu bosqichlarning har biri uchun alohida mashg'ulotlarni rejalashtiradilar. Bunday reja o'quv muhitidagi katta o'zgarishlarning, masalan, ochiq maydonchani qayta jihozlash singari ishlarning oson ko'chishiga xizmat qiladi.

Qisqa muddatli rejalar har haftada amalga oshiriladi. Mazkur rejalashtirish doirasida pedagogik jamoa har bir bolaning manfaatlari va ehtiyojlarini muhokama qiladi. Doimiy munozaralar davomida pedagoglar bolalar uchun tadqiqot loyihalarini o'ylab topadilar, mavzuli markazlarda qanday o'zgarishlarni amlag aoshirish zarurligini hal etadilar. Ular, shuningdek, pedagogik faoliyatda ota-onalardan iborat ko'ngillilardan qanday foydalanish, ular o'zlarini bemalol ishonch bilan tutishlari uchun nima qilish zarurligi kabi masalalarni ham muhokama qiladilar. Pedagogik jamoa a'zolari kundalik vazifalarni o'zaro taqsimlab oladilar (pedagoglarning biri bolalarning kichik guruhi bilan shug'ullanishi, boshqasi xona bo'ylab yurib, hamkasblariga yordam berishi va bolalarni kuzatib turishi mumkin). Shu tarzda bolalar bilan individual ishlash yoki bolalar guruhi bilan ishlash uchun vaqt topiladi. Pedagoglar bolalarning faol mashg'ulotlari, ularning bo'sh vaqtlari bilan tashkiliy ravishda o'tadigan vaqtlar o'rtasidagi to'g'ri munosabatni topadilar. Ular alohida muhim voqealarni esda saqlaydilar va rejada hisobga oladilar (bolalarning tug'ulgan kunlari, bayramlar). Pedagogik jamoa a'zolari kim kutubonaga borishi, kim ota-onalarga qo'ng'iroq qilishi, kim shifokordan ko'plab bolalarning bo'g'chaga kelmay qolishiga sabab haqida ma'lumot yig'ishi kabi vazifalarni o'zaro taqsinmlab oladilar. Reja tuzish chog'ida pedagoglar ota-onalarni ham hisobga oladilar, masalan, ularga ochiq eshiklar kunida farzandining mashg'ulotlarda qanday ishtirok etayotganini kuzatish borasida maslahat beradilar. Pedagoglar bolalar erishgan muvaffaqiyatlarni muhokama qiladilar, muayyan bola va butun guruh uchun maqsadlarni belgilaydilar.

Rejaning ahamiyati.

O'quv rejalarini yozma yoki ko'rgazmali ravishda rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda tarbiyachilar turli usullarni qo'llaydilar. Ayrimlar taqvimlardan foydalanadilar va ularga bir hafta yoki bir oy uchun mo'ljallangan asosiy mashg'ulotlar asosiy mashg'ulotlar va muhim ishlarni qayd etadilar. Boshqalar mavzuli markazlar, hafta kunlari va tegishli mashg'ulotlar belgilab qo'yilgan trafaretlar foydalanadilar. Har bir bola uchun aniq-ravshan maqsadlar va ularga erishish usullari ko'rsatilgan holda individual rejalar ishlab chiquvchi tarbiyachilar ham bor. Boshqa rejalar bunchalik murakkab bo'lmasligi mumkin: ularda faqat

tarbiyachining kelgusi haftadagi mashg'ulotlari, o'quv materiallari va ishlari sanab o'tiladi.

Kun jadvalini tuzish.

Kun jadvalida mashg'ulotlar, ishlar va bolalar o'yinlarining tuzilmasi aks ettiriladi. Bunday jadvallar har kungi kun tartibini belgilashga imkon beradi, bolalar unga ko'nikib qoladilar va bu ular uchun qulaydir. Jadvalda bolalar rivojlanishidagi ehtiyojlar hisobga olinadi: masalan, 3 yoshli bolalar guruhining mashg'ulotlar jadvalida o'yinlarga 6 yoshli bolalar jadvalidagiga qaraganda ko'proq vaqt, tarbiyachi rahbarligi ostidagi mashg'ulotlarga esa kamroq vaqt ajratiladi.

Masus tadbirlar, ya'ni ekskursiyalar, bolalar uchun yangi mashg'ulotlarni taklif etishlari mumkin bo'lgan ota-onalarning kelishlari yoki bolalarning kayfiyatiga va hatto ob-havoga mos tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutish uchun barcha jadvallar yetarli darajada moslashuvchan bo'lishi zarur. Agar uch kun davomida yoqqan yomg'irdan sung havo ochilib ketsa, o'quv rejasida mazkur kun uchun qanday mashg'ulotlar ko'zda tutilganidan qat'iy nazar, bolalarga toza havoda o'ynash uchun ko'proq vaqt berish lozim.

Ertalabki yig'in.

Ertalabki yig'in vaqtida bolalar o'zlarining kun buyi amalga oshiradigan mashg'ulotlarini o'ylab oladilar va rejalashtiradilar. Tarbiyachilar bolalarga o'quv materiallarini ko'rsatadi va bajarilayotgan loyihalarning joriy ahvolini tekshirish uchun amalga oshiriladigan mashg'ulotlarni muhokama qiladilar. 3 yoshli bolalar uchun yig'in qisqa tarzda o'tkaziladi. Ertalabki yig'in paytida bolalar o'z uylarida yoki atrofida sodir bo'lgan yangiliklar to'g'risidagi axborotlar bilan bir-birlarini tanishtirishlari, jumladan, o'zlarining qarindoshlarini ko'rgani borganliklari yoki tabiat quyniga uyishtirilgan ekskursiya haqida so'zlashlari mumkin. 5 va 6 yoshli guruhlarning ertalabki faoliyati arifmetik masalalarni yechish, topishmoqlar toppish yoki boshqa bir qiziqarli mashg'ulot bilan boshlanadi,

Mashg'ulotlarni tanlash.

Ertalab va tushlikkacha bolalarga individual yoki kichik guruhlarda ishlash imkoniyati beriladi. Buning uchun tarbiyachilar maxsus mashg'ulotlarni rejalashtiradilar va mavzu markazlarini zarur materiallar bilan ta'minlaydilar. Bolalar ushbu materiallardan turli usullar bilan, ularga nisbatan o'z ijodiy yondashuvlarini namoyon etgan holda foydalanadilar.

Tarbiyachilar bolalar orasida yurib, mashg'ulotlarni tushuntirib, savollar beradilar. Sal kattaroq yoshdagi bolalar savod chiqarishi yoki arifmetikaga oid topshiriqlarni tarbiyachining rahbarligi ostida bajarishlari mumkin. Muhimi, tarbiyachilar bolalarning mashg'ulotlarini tanlashlariga, ular individual yoki guruh bo'lib ishlayotganidan qat'iy nazar ish sifatiga hamda ularning muayyan mashg'ulotga bo'lgan qiziqishi qancha muddat davom etishga e'tibor berilishi lozim. Tarbiyachining vazifasi bolalar uchun qiziqarli bo'lgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashdan iborat bo'lib qoladi.

Guruhli mashg'ulotlar.

Guruhli mashg'ulotlarning davom etish muddati yosh guruhlari bilan bog'liq ravishda belgilanadi. Uch yoshli bolalar, odatda, 10 minutdan keyin charchay boshlaydilar, 5 va 6 yoshli bolalar esa, birgalikda yarim soatgacha shug'ullanishlari mumkin. Guruhdagi mashg'ulotlar-bu umumiy o'yinlar, ovoz chiqarib o'qish, keying mashg'ulotlar va o'yinlarni birgalikda rejalashtirish vaqti. Tarbiyachilar bolalarning charchaganliklarini yoki mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlari pasayganini sezganlarida guruh mashg'ulotlarini o'zgartirishga yoki vaqtini qisqartirishga tayyor bo'lishi lozim. Tarbiyachilar yoki ularning ko'ngilli yordamchilari har kuni bolalarga ovoz chiqarib kitob o'qib berishlari kerak.

Ochiq havoda sayr.

Barcha bolalar uchun ochiq havoda mashg'ulotlar tashkil etish zarur. Bolalar tirmashib chiqishi, sirpanishi, sakrash yoki sahna ko'rinishlarini tashkil etish uchun sharoit ta'minlashi kerak. Toza havodagi mashg'ulotlar ham bino ichida o'tkaziladigan mashg'ulotlar singari oldindan rejalashtirishni talab qiladi. Bolalarni turli-tuman materiallar va jihozlar bilan ta'minlash zarur. Tarbiyachilar ochiq maydonga suv o'ynash uchun stollarni, duradgorlik dastgohlarini, sahna ko'rinishlari uchun materiallar va boshqa jihozlarni olib chiqishlari mumkin.

MTTda ishning bu tarzda rejalashtirib tashkillashtirilishi esa bir me'yordagi ta'limni va uzluksiz rivojlanishni ta'minlaydi. Muassasadagi har bir bolaning muntazam rivojlanishi esa ishimizning natijasini belgilaydi.

4. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN FAOLIYATINIG O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarda o'yinning tutgan o'rni alohida bo'lib, o'yindan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi.

Zero,

- O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi.
- O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir.
- O'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning metod va usulidir.

Bolalar o'yinni o'zining mazmuni, xususiyati va tashkiliy jihatlariga egadir. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasasi ishida katta o'rin egallaydi. O'yinda yosh organizmga hos bo'lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalashda o'yin munosib o'rin egallaydi. Atoqli trener va shifokor E.A.Arken o'yinni "ruhiy vitamin" deb bekorga aytmagan. Bolalarni to'laqonli jismoniy rivojlanishini va salomatligini mustahkamlash uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. O'yin

jarayonida bolaning jismoniy jihatdan o'sishi uchun muvofiq sharoit yaratish nihoyatda muhimdir. Bunga erishmoq uchun o'yinlarning bolalarga yetarli sur'atda zavq tug'dirishini, ularda faollik hosil bo'lishini, bu o'yinlar turli hil harakatlarni o'z ichiga olishini, serharakat o'yinlar ketidan kamharakatli o'yinlarga o'tilishini ta'minlash zarur. Harakatli o'yinlar bolalarda quvnoqlikni oshirishga yordam beradi, o'zaro munosabatlar, his-tuyg'ularni tarbiyalaydi. O'yin qoidalarini bajara olish malakalari, jasurlik, odillik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Mashg'ulot, sayr va kunning turli jarayonlarida amalga oshiriladigan harakatli o'yinlar bola shaxsi rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

O'yin orqali ta'lim olishning tamoyillari.

- Yosh bolalarda (8 yoshgacha) ta'lim olish o'zlari shaxsan o'ylab topgan o'yin tajribalari bilan tashkillashtirilgan o'yinlar orqali yuzaga keladi.
- Bolalarning o'yinini rejalashtirishda, pedagog bolaning doimiy ravishda rivojlanib boruvchi murakkab tabiati va yosh bosqichlardagi rivojlanish xususiyatlaridan habardor bo'lishi kerak.
- O'yinning maqsadi iuchun keltirilgan materiallar aniq, real va bolaning hayotiga aloqador bo'lishi kerak.
- Pedagog tomonidan bezatilgan muhit bolaning faol kashf qilish orqali o'rganishiga yordam beradi.
- Pedagoglar bolalarning o'yinini qullab-quvvatlab, yo'naltirib turadi. Ular rejalashtirishda, tashkillashtirishda va domiy ravishda o'zgarib boruvchi tajribalarni hosil qilishda faol qatnashadilar.
- Pedagog bola bilan savol-javob qilib, uni o'yinga jalb qilishi bilan birga ruxlantirib, uning oyinini kengaytirish ham mumkin.

Maqsadga erishish yuzasidan o'yinlar klassifikatsiyasi.

Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar bolada predmetlarning rangi, shakli, kattaligi va boshqalarga ko'ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Xotirani, tafakkurni o'stiruvchi o'yinlar-obrazli-harakatli, ko'rgazmali-obrazli, mantiqiy tafakkur turlarini egallashdan iborat.

Maktabga tayyorlashga yordam beradigan o'yinlar orqali kichkintoylarda elementar mavzuli tasavvurlarni rivojlantirish, nutqning tahlili bilan tanishtirish, bola qo'lini yozuv malakalarini egallashga tayyorlash ishlari olib boriladi.

O'yin, ijodkorlik va kognitiv rivojlanish.

Kognitiv deganda aqlda yuz beradigan jarayonlar, ya'ni har qanday turtki, hodisa, jism, sifat yoki fikrni qabul qilish, to'plash va qayta ishlash jarayonlar tushuniladi.

Ijodiy tajribalarda bolalar hissiy ma'lumotlarini qabul qilishni o'rganadila, chunki ular predmetlarning sifatini kashf qiladilar. Bunda bola predmetlarini ma'lum xususiyatlarini, keyinchalik kategoriya va sinflarga ajratishni o'rganadila.

Ijodiy tajriba orqali bolalar atrof-muhitning tanqidiy hislatlarini nomoyon etuvchi tasavvurlarni hosil qiladilar. Masalan, yosh bola uchun odam avvalo yuz, yoki, qo'l va hokozodan iborat bo'ladi, faqat keyinchalik butun tana muhim deb qaraladi.

Bolalar ulg'ayishi bilan ularning ijodiy tajribalari, ma'lumotlarni tartibga solish va ularni to'g'ri foydalanish qobiliyatlari ham o'sadi. Masalan, ularning ijodiy ishlari ancha mukammal va ko'rimli bo'ladi.

Bolaning ijodiy tajribasi muammolarni yechishda mavjud ma'lumotlardan foydalanib, bir nechta yechim usulini taklif qiladi. Ba'zi misollarni ko'rib chiqaylik, biror jismni namoyish qilishda eng yaxshi ranglardan foydalanish, yoki biror ma'lum joyga birir shakl mos kelishi uchun uni qanday kesish kerak?

Ijodiy tajribalar bolaga turli fikrlash va qarashlar orqali hilma xil yechimlar imkonini va ijod tanlovini beradi.

5.BOLALARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJODIY MULOQOT MALAKALARINI QO'LLASH.

- Biz maslahat va ko'rsatma berishdan ko'ra ko'proq bolaning ota-onasidan so'raymiz va tinglaymiz.
 - Bolaning rivojlanishidagi yutuqlari va muvofaqiyatlari haqida yozma va og'zaki ravishda doimiy ota-onalarga ma'lumot beramiz.
 - Oilalarga ma'lumot berish va olishning individual shakllarini qo'llaymiz.
 - Farzandlariga tegishli bo'lgan keng maromdagi mavzularni muhokama qilishga tayyor ekanligimizni ota-onalarga ma'lum qilamiz.
 - Ota-onalarga ta'lim dasturining maqsad va vaifalarini e'lon qilishdan avval ulardan istak va hohishlarini so'raymiz.
 - Ota-onalarning iltimoslari, g'oyalari va takliflariga o'z vaqtida ijobiy munosabat bildiramiz.
 - Fazrandlariga tegishli muammolarini hal etishda ota-onalar bilan birgalikda qaror qabul qilamiz.
- Oila a'zolariga tanlash va qaror qabul qilish imkonini berish.**
- Oila a'zolariga o'zlari va farzandlarining istaklarini umumlashtirishga ko'maklashamiz: ota-onalar tomonidan aytilgan maqsadlar ro'yxatini birgalikda tuzamiz.
 - Hizmatlarni rejalashtirish va ko'rsatish jarayonida ota-onalarga farzandlari bilan bog'liq masalalarda eng yaxshi eksport sifatida munosabat bildiramiz.
 - Ota-onalar bilan hamkorlikda ta'lim va tarbiya strategiyalarini belgilaymiz, ota-onalar strategiyalardan qaysi biri ularning ehtiyoj va zaxiralariga mos kelishini o'zlari hal etishlariga imkon beramiz.

- Ota-onlarga ular farzandlarining ta'lim-tarbiyasi masalasida qayerda, qachon va qanday ishtirok etishlarini tanlash imkonini beramiz.
- Doimiy ravishda ota-onlardan tanlangan strategiyalar samaradorligi, dastur bo'yicha ishlar natijasi va kiritmoqchi bo'lgan o'zgarishlari haqidagi fikrlarini so'raymiz.

Oila va bolaning kuchli tomonlarini aniqlash va qo'llash.

- Suxbat, telefon va maktublar orqali oilalarga farzandlarining kuchli tomonlari va yutuqlari haqida ma'lumot berib boramiz.
- Oila va bolaning kelajagiga oid maqsadlari, umid va orzulari haqida ota-onlardan ma'lumot olamiz.
- Ota-onalarning bola taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini tan olamiz va minnatdorchilik bildiramiz.
- Ota-onalarga maqsad va harakatlarini bolaning bolaning kuchli tomonlariga qaratishlariga ko'maklashib, ularning takliflarini rivojlanish dasturiga kiritamiz.
- Ota-onalar farzandlari hayotiga salmoqli ijobiy ta'sir ko'rsata olishlarini tushunishlariga ko'maklashamiz.

Oila noyobligi va turli tumanligini hurmatlash.

- Oilalarning hissiyot va fikrlarini qabul qilamiz va hurmatlaymiz, hattoki ular bizning fikrlarga mos kelmasa ham.
- Oilalarning madaniy qadriyatlarini tushunib ishlashga harakat qilamiz.
- Oila qadriyatlari bizning qadriyatlardan keskin farq qilsa ham, biz ularni qabul qilamiz.

Oila va MTT orasida do'stona hamkorlikni yaratish.

- Oila a'zolariga guruh faoliyatida faol ishtirok etish imkonini beramiz, shu bilan birga ular o'zlarini qulay his etishlari uchun bor kuchimizni sarflaymiz.
- Guruh tadbirlarini o'tkazish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ota-onalarni jalb qilamiz.
- Ota-onalarni bolalar ta'limiga jalb etamiz, shu bilan birga shunday shakllar tanlaymizki, ota-onalar ta'lim jarayonida o'zlarini qulay va yengil his qiladilar.
- Ota-onalarni kun davomida istalgan vaqtda guruhda qabul qilishda tayyormiz.
- Oilalarga boshqa jamoat xizmatlarini topishga ko'maklashamiz.

5. “ Oila qadriyatlarini o'rganish ” So'rovnoma. (25 daqiqa)

Trener ishtirokchilarga “So'rovnoma” shaklini tarqatadi. Har ishtirokchi o'z oilasidagi qadriyatlarni baxolaydi.

Trener so'rovnoma o'tkazgandan so'ng “oila qadriyatlarini aniqlashdan maqsad”ni tushuntiradi, ya'ni oila qadriyatlarini aniqlash pedagogga ushbu oilaga va bolaga to'g'ri yondashuvni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Masalan: “MTM da Fozilxon va Komiljon urushib qolishdi. Natijada Fozilxonning oyog'I shikastlandi. Fozilxonning oilasida eng muhim qadriyat sog'liq, shuning uchun oila a'zolari

bilan sodir bo'lgan voqeani muhokama qilishni “urush moboynda olingan jarohat” hayot uchun xavfli emasligi va bolaning tanasidagi qirilgan joyiga yaxshilab tibbiy ishlov berilganligidan boshlab, keyin esa urushning asosiy sababi va harakteri haqida so'zlash maqsadga muvofiqdir”.

Komiljonning oilasida esa tarbiya asosiy qadriyat hisoblanadi, shuning uchun ushbu oilaga boshqacha yondashuv bo'lishi kerak, ya'ni “Komiljon o'zining hohish-istaklarini so'zlar bilan tushuntirishga harakat qildi, ammo so'zlar yetmay qolgandi, o'z huquqlarini erkakchasiga hal qilishga to'g'ri keldi”.

Oilaga tashrif

Shunday daftar eshitganmisiz?

MTT va oila hamkorligida ko'ngildagidek bo'lsa, har ikki tomon ham yutadi. Shu ma'noda bola kunning asosiy qismini MTT da o'tkazsa ham, inson kamoloti uchun eng muhim bo'lgan omillardan biri oila sanaladi.

Bolaning onasi bilan aloqalarini o'rnatish shakllaridan biri dastlabki pedagogik topshiriqni bajarish jarayonidagi ota-onalar va tarbiyachining muloqoti aks etadi. Shu o'rinda bola bilan birga she'r yodlash, kichik matn tuzish kabi uy vazifalarini bajarish mobaynida ota-ona farzandining qaysi sohada iqtidorli ekanligini ham bilib oladi.

Ota-onalar bilan ishlashni tashkil etishda bolalarni aynan qaysi ijodiy yoki ta'limiy o'yin bilan shug'ullanishini xohlayotganligini aniqlash bo'yicha savol bilan murojaat qilish yoki ulardan maxsus anketa to'ldirishni iltimos qilish mumkin.

Ota-onalar va oila bilan individual ishlash.

Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onaga farzandining maktabgacha ta'lim muassasasidagi hayoti haqida tushuncha berishi mumkin. Shu o'rinda tarbiyachining har doim ham oilalarga bir vaqtning o'zida tashrif buyura olmasligini hisobga olgan holda boshqa samarali usullardan foydalanish mumkin. Masalan, guruhdagi har bir bola uchun alohida “Oilaga tashrif” daftarini yurgizib, uni haftaning so'ngi kunida ota-onaga yuborish mumkin. Ushbu daftarda bolaning hafta davomidagi taomnomasi, kayfiyati, qiziqishlari, ta'limiy faoliyatdagi ishtiroki va tavsiyalar qayd qilinadi. Bu daftar ota-ona va tarbiyachi o'rtasida ajoyib vositachi bo'lib, ota-ona ma'lum sohada tarbiyachiga savol paydo bo'lsa uni so'rashi yoki lozim topsa kelib tarbiyachi bilan uchrashishi mumkin.

Ota-onalar bilan yana jamoa shaklida majlislar tashkil etib, turli anketa savollaridan unumli usuldir. Jarayon tarbiyachining ota-onaga va ota-onaning tarbiyachiga bermiqchi bo'lgan ko'pgina savollariga oydinlik kiritadi.

Ko'rsatmali ishlarda esa bolalar tomonidan qo'l mehnati, qurish-yasash, tasviriy san'at mashg'ulotlarida yasalgan ishlar namoyishi sifatida ochiq eshiklar kuni o'tkazish ham tavsiya etiladi.

MTT tarbiyachisi ota-onalarga pedagogik hamkorlikni taklif etishi mumkin. Boisi, ilk yosh guruhidanoq bolaning yosh xususiyatlari, yoshga doir muammolari bilan tanishib brogan onaning tarbiyachi bilan bola xulqidagi har qanday

o'zgarishni yechishi osonroq bo'ladi. Ota-onalar bilan mashg'ulotlar faqat ma'ruza emas, balki seminar, savol-javob, trening tarzida o'tkazilganida samara seziladi. Shuning uchun ham bunday o'qishlarni tashkil etishni iloji boricha soddalashtirgan ma'qul.

Shu o'rinda ayrim ota-onalarga qo'yidagi tavsiyalarni berishni lozim deb topdik:

Tarbiyachining ishidan norozi bo'lyapsizmi, aynan nimadan noroziligingizni aniqlab oling. Ko'pincha onalar birgina lahzadagi kichik xatoga qarab tarbiyachi bilan nizolashishga boradilar. Kimningdir tushlik vaqtida kiyimiga ovqat tekkan bo'lishi, qaysidir bolakay kiyimini shoshib teskari kiyishi, o'ziniki emas o'rtog'ining tuflisini kiyib olgan bo'lishi mumkin. Bu holatda katta muammo chiqarish har doim ham to'g'ri emas.

Har kuni farzandingizdan bog'cha opang seni hafa qilmadimi deb so'rash orqali siz uni o'zingiz istamagan holda tarbiyachisi haqida salbiy munosabat bildirishiga sababchi bo'lib qolasiz. Shuning uchun ham bolangizning bog'chadagi kuni haqida so'raganda unga ijobiy savollar bering. Va doim ham bolaning gaplariga chippa-chin ishonishdan oldin uning gaplarini teshirib ko'ring. Gohida bola o'ziga ishonayotganlarini ko'rib yolg'on gapirib qo'yib buning natijasida ota-ona tarbiyachi bilan noo'rin janjallashgani ham amaliyotda ko'zatiladi.

Farzandingizning qaysidir gapi sizni ajablantirsa va siz bu masalada tarbiyachi bilan gaplashish shart deb hisoblasangiz unda, bu ishni kunning ikkinchi qismiga qoldiring. Ana shunda sizning ham tarbiyachining ham kayfiyati buzilmaydi. Tarbiyachi bilan gaplashayotganda ortiqcha his-tuyg'uga berilmasdan gaplashing. Uning gaplarini ham tinglang, ana shundan so'ng hulosa chiqaring. Unutmang, bola ham ba'zida yolg'on gapirishi mumkin.

Guruhda nechta bola bo'lsa, tarbiyachining ana shuncha ko'zi bor degan hazilomuz gap ham bejiz aytilmagan. Farzandingiz tarbiyalanayotgan MTT xodimlari o'z ishining ustasi, ular o'z yo'nalishi bo'yicha tahsil olgan va har bir bola uchun mas'uliyatni siz o'ylaganingizdan ham ko'ra ko'proq his qiladi.

MTT bola moslashuvi uchun birinchi zina deb hisoblaydigan bo'lsak, farzandingizning ana shu zinadan ortiqcha qiyinchiliksiz ko'tarilishi uchun tarbiyachi va ota-ona hamkorligi muhim o'rin tutadi

Mavzu: “Yaxshi munosabat uchun 8 ta tamoyil”. Slayd shou. (10 daqiqa).

Trener hulosa o'rnida ishtirokchilarga “yaxshi munosabat uchun 8 ta tamoyil” materialini slayd orqali namoyish etadi.

Ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida samarali hamkorlik qilishning tamoyillari.

- Ota-ona va tarbiyachi o'rtasida o'zaro hurmat.

- Ota-onalar va tarbiyachi (MTM) o'rtasida bo'ladigan muloqotning kelishilgan usulini boshidan belgilab olish kerak.
- Yaqin aloqalarni saqlab turish uchun o'zaro kelishgan holda davomli uchrashuvlar tashkil qilish.
- Ota-onalarning tajribasidan kelib chiqib, ularning xona (MTM) dagi turli mashg'ulotlarga jalb etilishini ta'minlash.
- Oilalardagi madaniy hilma-xillikni hurmat qilib, mashg'ulotlar va MTM tadbirlari orqali hilma-xillikni targ'ib qilish.
- Oila va bolaning kuchli tomonlariga diqqatni qaratish.
- Ota-onalar va tarbiyachi o'rtasida bola va oilaga tegishli axborot almashilganda, qat'iy ishonchga amal qilish. Hamkorlik qilishda ishonch juda muhim hisoblanadi.

“An'anaviy va hamkorlikdagi pedagoglarning farqlari”.

An'anaviy pedagog	Hamkorlikdagi pedagog
Boshlovchi donishmand (qanday yo'l bilan ish tutishni o'rgatadi, ko'rsatadi, xabar beradi)	Gid (ishtirokchilar tashabbusiga asoslangan holda yo'l boshlaydi)
Boshqaradi.	Savollar beradi.
Bolani baxolaydi va uning rivojlanishi haqida ota-onalarga ma'lumot beradi.	Ota-onalardan bola haiqda so'raydi va ular bilan birgalikda uning rivojlanishini baxolaydi.
Barcha savollarga javobni o'zi biladi.	Ota-onalar bilan birgalikda muammolar yechimini izlaydi.
Bolani va umuman guruhni rivojlanish maqsadlarini belgilaydi.	Ota-onalarning bolaga va umuman guruhga nisbatan hoxish istaklarini o'rganadi va ularga o'zining takliflarini qo'shadi.
Ota-onalarga uyga topshiriq beradi.	Ota-onalar bilan birgalikda muhokama qilib, oilaviy sharoitga va hayot yo'nalishiga mos keladigan faoliyat turlarini izlaydi va tavsiya etadi.
Ko'pincha maxsus so'zlarni (teminlarni) qo'llaydi.	Ota-onalarga tushunarli tarzda gapiradi.
Ota-onalar unga bilag'on mutaxassis sifatida munosabatda bo'lishlarini hoxlaydi.	Ota-onalarga o'zining kuch va bilimlarini baxolashlariga, o'z harakatlarini to'g'riligiga ishonch hosil qilishlariga yordam beradi. Nafaqat o'qitishga, o'qib o'rganishga ham tayyor.

Oila hamkorligiga asoslangan amaliyotda shakl va jarayonlar yuqori turmaydi, balki oilaga nisbatan hurmatli munosabatdagi qadriyatlar, ota-onalar

fikriga quloq solish, ulardan bola bilan muloqot qilish ko'nikmalarini o'rganish, ular bilan hamkorlik qilish istagi bo'ladi.

Oila hamkorligining 3 ta asosiy mezonlari mavjud:

1. Oilani asosiy hizmatlarni oluvchi deb hisoblash. Bolaning hayotida oila eng yuqori o'rinda turishini, bola rivojlanishida muhim mvazifani bajarishini hisobga olgan holda, oilaga bolaning ta'lim-tarbiyasida va qarmog'ida muhim element sifatida yetarli darajada e'tibor qaratish.

2. Oila tomonidan qabul qilingan qarorlarni hurmatlash va qo'llab-quvvatlash. Ushbu mezon mutaxasislarga oila a'zolarini ta'limiy jamoaning muhim ishtirokchilari va bola ta'limining strategiyasida qaror qabul qilinishida asosiy inson sifatida abul qilishni tavsiya etadi. Agar ota-onlarga bolaning birinchi olti yoshi moboynda uning ta'limi va rivojlanishiga aloqador qarorlar qabul qilish, shuningdek bola qiziqishlarini kelajakda qo'llab-quvvatlovchi malakalarni o'rganish imkoniyati berilsa, boaning keying hayoti davomida uning ta'lim-tarbiyasida ishtirok etish imkoniyati ota-onalarda ko'proq bo'ladi.

3. Egiluvchanlik va sezgirlikni nomoyon etish, bola va oilaning hayotlarini yaxshilashga qaratilgan xizmatlar ko'rsatish. Ushbu mezon oilaning madaniy qadriyatlariga hurmat va munosabatda bo'lish, bolaning o'zgarayotgan ehtiyojlarini qondirish masalalariga ota-onalarning bilvosita zaxiralarni yo'naltirish, bola rasmiy jamoat hizmatlarini (tibbiy, ijtimoiy) vaqtida olishga yordam ko'rsatishlarini nazarda tutadi. Jamoat zaxiralari haqida ma'lumot bugun oila uchun foydali bo'lishi mumkin, ayniqsa bu ma'lumot oilada aloxida e'tibor talab qiluvchi farzandlar bo'lsa juda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida oilaga yo'naltirilgan hamkorlikning amaliy ko'rsatkichlari:

- Ijobiy muloqot malakalarini qo'llash.
- Oilaga a'zolariga tanlash va qaror qabul qilish imkoniyatini berish.
- Oila va bolaning kuchli, ijobiy tomonlarini aniqlash va qo'llash.
- Oilalarning rang-barangligi va o'ziga hosligini hurmat qilish.
- Muassasa va oila o'rtasida do'stona hamkorlikni yaratish.

Ushbu ko'rsatkichlar yo'naltiruvchidir, chunki har bir muassasa oilaga yo'naltirilgan hamkorlikni o'zining sharoitiga va o'z muassasasiga moslashtirish lozim.

Demak, hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun avvalambor muassasa o'zining pozettsiyasini ko'rib chiqishi lozim va ota-onalar bilan ish olib borishda malakaviy majburiyatlaridan bola iqboli va istiqboli yo'lida hamkorlik istagiga o'tishi lozim. Shundan kelib chiqadiki, an'anaviy pedagog rolidan voz kechib, hamkorlikdagi pedagog roliga kirish foydalidir.

So'rovnoma.

“Oila qadriyatlarini o'rganish”

Hammaga ayonki, oilada bu- butun bir dunyo bo'lib, o'zining madaniyati, an'analari, bolaning ta'lim va tarbiyasidagi ustuvor yo'nalishlari mavjuddir.

Biz bolaga yo'naltirilgan barcha say-harakatlarimiz o'zaro mos bo'lib, bir-birini to'ldirib borishini hoxlardik.

Iltimos, quyida ko'rsatilgan shaxsiy fazilatlarni Siz va Sizning oilangiz uchun ahamiyati bo'yicha raqamlab chiqing!

Aql zakovat

Vijdon

Optimizm

Salomatlik

Moddit ta'minot

G'urur

Tarbiya

O'qimishlilik

Mezr-muruvvat

Maqsadga yo'naltirilganlik

Mustaqillik

Xushchaqchaqlik

Turli vaziyatlarda yo'l topib ketish

Javobgarlik

Insonlar va sharoitlarni boshqarish malakasi

Topqirlik

So'zining ustudan chiqish

Kattalarga hurmat

Qo'yidagi fikrlarni o'qib, davom ettiring:

a. Bizning oilada qo'yidagilar muhim

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

b. Bizning oilada bolalar o'jarlik qilsa, ota-onamiz

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

c. Bizning oilada qo'yidagilar man etiladi

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

d. Bizning oilada bo'sh vaqt qo'yidagilarga bag'ishlanadi

.....

.....

.....

.....

.....

.....

Ilk bolalik davrida kattalar va bola o'rtasidagi qo'llab quvvatlovchi muloqot.

Bolani rivojlantirish Xalqaro dasturi (BSST) bilan birgalikda Bolalarda yaxshiroq Psixo-Ijtimoiy Rivojlanishni ilgari surish uchun Ona va Bola muomilasini rivojlantiruvchi bir qator qo'llanmalar ishlab chiqildi. Dasturning mag'zi qo'yidagi **“Yaxshi munosabat uchun sakkizta tamoyil”** da o'z ifodasini topgan. Bu yo'l-yo'riqlar ayni paytda dunyoda keng tarqalgan xisoblanadi va mahalliy an'analarga zid kelmaydi va uch yoshgacha bo'lgan bolaning optimal rivojlanishini qo'llab-qo'vvatlaydi.

Yaxshi munosabat uchun sakkizta tamoyil.

1. Farzandingizga uni sevishingizni ko'rsating.

Ijobiy hislatlarni namoyon eting. Bola enaga aytayotgan gaplarni tushunmasa ham, sevgi, inkor va qayg'u kabi hissiyotlarni tushunadi. Enaga bolani yoqtirishini bildirishi, muhabbat va quvonch bilan qo'lda tutishi juda muhim hisoblanadi. Bola ham o'z navbatida bunga munosib javob qaytaradi.

2. Bola bilan gaplashing. Turli ovozlar, hissiy bildirmalar va imo-ishoralar bilan uni suhbatga torting.

Xattoki yangi tug'ilgan chaqaloq bilan ham tabassum, ko'ziga qarash va imo-ishora orqali muloqot qilsa bo'ladi. Bola qilayotgan harakatlarga tarbiyachi ijobiy izoh bersa, bola hursand bo'lib, shovqinlar bilan, “javob” beradi. Keyin tarbiyachi bolaning bu shovqinlarini o'rganib olib, imitatsiya qilsa, bola javob qaytaradi. Bu kabi hissiy muloqot bolaning keyinchalik tarbiyachi bilan bo'ladigan munosabatiga va nuqning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

3. Bolaga ergashing

Bola bilan muloqotga kirishayotganda, tarbiyachi bolaning istagi va imo-ishoralariga e'tibor berib, unga ergashishga harakat qilishi kerak. Agar bola

biror o'yinchoq yoki biror jismni o'ynamoqchi bo'sa, uni yaxshilab tekshirib ko'rishga imkon bering yoki uxlaydigan payti bo'lib qolsa-yu, lekin o'ynagisi kelayotgan bo'lsa, biroz qo'yib bering. Shunda bola tarbiyachi uni hurmat qilayotganini sezadi va uning tashabbusi inobatga olinayotganini ham his qiladi. Albatta, bu bolaning axloqiga oid tartiblar bilan me'yorda bo'lishi kerak. Bolaning rivojlanishida yana bir muhim narsa bor, ya'ni bolaga chegaralashlardan tashqari, ma'lum bir me'yorda o'zi hoxlagan erkinlik hamda imkon berilishi kerak.

4. "Otalar sizlar uchun" Plakatlar. (5 daqiqa)

Trener ishtirokchilarga slayd orqali bir nechta fikrlarni namoyish etib, ularni muassasada plakat sifatida osib qo'yish va shu bilan birga otalarning bolalar tarbiyasi vazifasiga chuqurroq yondashib, javobgarliklarni yanada kuchli his qilishlari imkon yaratish mumkinligini aytib o'tadi.

- O'zbek xalq maqoli
Otaning qandayligini hech kim yo'qligida bolasiga qilgan muomilasidan bilish mumkin.

Menga ayt va men unutamani. Menga saboq ber va men eslab yuraman.

Meni qiziqtir va men o'rganaman.

- Benjamin Franklin

Farzandni uzoqqa ketkazmaslikning eng yaxshi yo'li-oilaviy muhitdagi zaharli havoni ko'chaga haydab, oilada farovon, dilkash rishtalar, olamga hush yoqadigan iqlimni yaratishdir.

- Doroti Pakter

Ota o'z farzandiga g'zal odobdan ko'ra yaxshiroq narsa bermaydi.

Farzandga odob berish va uni ta'lim-tarbiyaviy qilishga mas'ulsan. Bu mas'ullik esa farzandning kun kelib senga yaxshilik qilishiga mas'uldir.

5. Xulosa (5 daqiqa)

Trener xulosa o'rnida "Xammasiga u aybdor" nomli rivoyatni o'qib eshittiradi.

Bir bolakay ko'chada tovuq o'g'irlab, uyiga qaytib keladi. Otasi uni ko'rib xursand bo'lib, maqtashga tushadi. Bolakayga esa otasining munosabati yoqibdi. Bir yil o'tmay bolakay qayerdandir sigirni yetaklab keladi. Bunda ham ota farzandini maqtay boshlabdi. Yillar o'tib, bola uchiga chiqqan o'g'ri bo'libdi va bir kun kelib mashxur xonning boyliklariga ko'z olaytiribdi, ammo qo'lga tushib qolibdi. Sudyalari uni boshini olishga qaror qilibdilar, sudya o'g'riga oxirgi so'z immonini bersa, u shunday debdi:

- Mana shu yerda meni o'g'irlikka o'rgatgan va vaqtida tuxtatmagan otam o'tiribdi. Meni aybim qancha bo'lsa, otamning aybi ham huddi shunchadir. Meni boshimni olishga qaror qilsangizlar, unga ham ushbu jazoni qo'llanglar.

- Shu rostmi?- sudya qiziqib so'radi va haqiqatni bilgandan so'ng qo'shib qo'yibdi:

- Bunda sening aybing yo'q, chunki otang aybdor.

Sudya o'z qarorini o'zgartirib, bolani qo'yib yuboribdi va qarorni otaga nisbatan qo'llabdi.

V.BOB Iqtidorli bolalar bilan ishlash.

O'qitish maqsadlari:

- Iqtidorli bolalarni aniqlash va ularni rivojlanishini monitoringini o'rganadilar.
- Bolalarni barkamol hissiy va nutqiy rivojlanishiga ko'maklashish yo'llarini bildilar.
- Pedagoglar kasbiy va shaxsiy takomillashadilar.

Kerakli material:

- Proyektor
- Ekran
- Kompyuter
- A4 formatidagi qog'ozlar
- Flipchart
- Markerlar
- Skotch

Mashg'ulot tartibi:

1. "Iqtidorlilik nima?" Aqliy hujum (5 daqiqa)

Trener "Iqtidorlilik nima" savoli bilan ishtirokchilarga murojaat etadi va ularning javoblarini flipchartga yozib boradi.

2. "Iqtidorlilik – bu..." Slayd shou (10 daqiqa)

Trener qo'yidagi material orqali ishtirokchilarga slaydlarda iqtidorlilik haqida ma'lumot beradi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlash pedagog shaxsi va kasbiy hislatlariga qo'shimcha talablar qo'yadi. Shuning uchun iqtidorli bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar maxsus tayyorgarlikka muhtojdir.

Iqtidorlilik-ma'lum bir faoliyatning samarali bajarilishini ta'minlovchi bir necha qonuniyatlar majmuidir.

Iqtidorli bolalar-ijtimoiy dunyoda noyob holatdir. Ko'pgina pedagoglar takidlashicha, iqtidorli bolalar nafaqat biror bir faoliyatga nisbatan yaxshi qobiliyatlari bilan, balki tengdoshlari orasidao'zlarining psixolog xususiyatlari bilan ham ajralib turadilar.

Zamonaviy ilm fanlarda bolalar iqtidorining bir necha talqini mavjud. M.YA.Basov fikricha, iqtidor yutuqlar hamda yutuqlar imkoniyati sifatida ko'riladi. Uning ta'kidi bo'yicha nomoyon bo'lgan qobiliyatlari va nomoyon bo'lish ehtimoli bo'lgan qobiliyatlarni inobatga olish kerak.

Xozirgi kunda psixologik ilm fanda iqtidorli intellektning yuqori rivojlangan bosqichi, ijtimoiy qobiliyatlar, shuningdek ma'lum bir shaxsiy xislatlarni o'z ichiga asosiy komponent tariqasida qamrab olgan tizimda qamrab olgan tizimli ta'lim sifatida tushuncha shakllangan. Ushbu uchta komponent L.A.Venger, N.S. Leytesning asarlarida iqtidorning turli shakllari asosi bo'lib yoritilgan.

A.I.SSavenkov takidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtidor nutq va tafakkurning jadal rivojlanishi, qiziquvchanlik, tadqiqotlikning faolligi, biror bir faoliyat (musiqqa, rassomlik) bilan erta qiziqishida namoyon bo'ladi.

Aqliy yo'nalishda bolalar iqtidorligi ularni osma yozuvlar, kitob o'qishi, matematik maqsadlar yechishi, hodisalar orasida aloqa o'rnatishi, biror bir dalil va vaziyatlarni yaxshi eslab qolishi, ijtimoiy va ma'naviy muammolar bilan qiziqishi, diqqatni uzoq saqlab qolishi va savollar berishida namoyon bo'ladi.

Iqtidorli bolada ustuvor bo'lgan aqliy matevatsiya tadqiqotlik faolligida namoyon bo'lib, yangilik, vaziyat yangiligi, odatiy holatda ham qandaydir yangilikni sezgirlik orqali ko'rinadi.

Yuqorida aytilganlarga hulosasi qilib maktabgacha ta'lim sharoitida iqtidorlilik ko'rsatkichlari sifatida qo'yidagilarni belgilash imkonini beradi:

Nuqni erta rivojlanganligi.

Katta lug'at boyligi.

Yaxshi xotira.

Tasavvurning yuqori darajadagi rivojlanganligi.

Qiziquvchanlik.

Aqliy va ijobiy qobiliyatlar.

3.Psixoprofilaktika va rivojlanish. (35 daqiqa)

Trener ishtirokchilarga 6 ta turli geometric figuralarni bittadan tarqatadi va figura shakliga qarab ularni 6 ta guruhga bo'lib oladi.

Iqtidorli bolalar muammolarini o'rganuvchi ko'pgina tadqiqotlar hissiy sohada va muloqatchanlikda ushbu bolalarda ma'lum bir muammolar yuzaga keladi: ijtimoiy va hissiy yakkalanish, nizolar, o'zini katta tutish, jizzakilik, boshqalarga sabrsizlik va boshqalar. Tadqiqotchilar buni iqtidorli bolalarning aqliy va ijtimoiy rivojlanishidagi nomunosiblik (disproporsiya) deb tushuntiradilar.

So'ng trener kichik guruhlarga iqtidorli bolalar bilan ishlash asosiy tamoyillarini ishlab chiqish birgalikda muhokama qilib, ish mazmunini ishlab chiqish vazifasini beradi.

Trener uchun ma'lumot.

Bolalar bilan ishlash tamoyillari qo'yidagilar.

Kattalar va bolalar o'zaro subyekt-subyekt shaklida muloqoti (hamkorlik).

Tolerantlik tamoyili-har qanday bolani so'zsiz qabul qilish, u bilan ishlashda sabr-toqat va hayrixoxlik ko'rsatish.

Hissiyotlilik tamoyili- mashg'ulot moboynida ijtimoiy hissiy kayfiyatni yaratish.

Bolaning olgan bilim va tajribasini qabul qilib, o'zlashtirishiga so'zsiz ishonch bildirish.

3. "Iqtidorlik yulduzi" (15 daqiqa)

Har bir ishtirokchi qog'ozga yozilgan so'z birikmasini oladi. Ishtirokchi vazifasi: qog'ozda yozilgan so'z birikmasini ko'z oldiga keltirish va qog'ozga tasvirlashdir.

So'z birikmalari qo'yidagilar:

Quvnoq uy.

Kasal daraxt.

G'aroyib sovg'a.

Tikonli kofta.

Iliq yomg'ir.

Sexrli o'rmon.

Yoqimli xid.

Noto'g'ri likopcha.

Xafa qarg'a.

Xira pashsha.

Faoliyat yakunida uyin muhokamasi olib boriladi.

Nima deb o'ylaysiz, "Iqtidorlar yulduzi" qiyinmi?

Bolalar bilan ishlashda ushbu o'yinni qo'llash mumkinmi?

Bola rivojlanishida ushbu o'yin qanday xissa qo'shadi?

4. "O'zingni maqta" o'yini (25 daqiqa)

Trener umuman maqtanish nimaligini ishtirokchilarga tushuntiradi. Bu o'z qobilyatlari va qadriyatlarini yuqori qo'yish, aksincha farzand yoki turmush o'rtog'i bilan maqtanish emas.

Ushbu o'yin o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Har bir ishtirokchi (o'zi istagan tartibda) davra markaziga chiqib, 1 daqiqa ichida o'zini maqtaydi. Qolganlar diqqat bilan tinglab, "O'sish nuqtalari"ni belgilab borishadi.

Guruh har bir ishtirokchi chiqishini qaysi tizim asoaida baxolashni hal qiladi (javob dalillari bilan). Ko'zma ko'z muloqot, 1 daqiqa ichida tanaffussiz so'zlash, "Men sevaman....." so'zlarini kamroq aytish, ovozining dadilligi, argumentatsiya.

5. Xulosa (10 daqiqa)

Trener ushbu sessiya haqida ishtirokchilar bilan fikr mulohaza yuritib, mavzuga xulosa yasaydi.

Trener uchun ma'lumot.

Agar bola barcha vazifalarni osonlik bilan bajarsa, unda mantiqiy tafakkur, ko'zatuvchanlik, mustahkam xotira, barcha narsalarga qiziquvchanlik o'z fikrini tushuntira olish, matematik amallarini bajara olishi, dunyoqarashining kengligi-bularning barchasi unda bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligi va kattalar tomonidan yetarli darajada e'tibor berish kerakligini talab etadi.

Iqtidorli bola qo'yidagi xususiyatlarni ham o'zida mujassam etadi:

- Ijodiy, original fikrga ega;
- Xazil mutoyibani tushunadi;
- Biror narsani bilishga cheksiz intilish va qiziquvchanlik;
- Ko'p hollarda o'z tengdoshlaridan mustaqilligi bilan ajralib turadi, kattalar bilan muloqatga intiladi.

Ba'zida esa ota-onalarni farzandlarining o'z tengdoshlariga o'xshamasligi, boladan o'ta qiziquvchanlik, bilishga katta ishtiyoq xavotirga solidi. Bolaning hatti-harakatlari qat'iy va noan'anaviy bo'lsa, masalan Nimaga? Nima uchun? kabi savollarni mo'p bersa ba'zida ota-onalar bu savollarga javob berishga qiynalsalar, ular bolalarga tanbex berishlari, xattoki, uni jazolashlari mumkin. Bunday holatlarda ota-onalar boladagi ijtimoiy imkoniyatlarni rivojlantirish o'rniga uni so'ndiradilar.

Iqtidorli bolalarning ota-onalari bilan suhbatlashganda ularning farzandlarining barcha sohalarida birinchi bo'lishi kabi hohishlarning guvohi bo'lish mumkin. Masalan, ona "mening farzandim qobilyatli bo'lsa-yu, nima uchun o'qishni hohlamaydi?" degan savolni berishi mumkin. Ba'zida shunday holatlar bo'ladiki, ota-onalar bolani haddan tashqari biror bir mashg'ulot bilan shug'ullanishga majbur qilishlari, bolada ana shu faoliyatga nisbatan nafratni uyg'otishi mumkin. Agar biror muddat vaqt o'tsa, bolaning o'zi bunga qiziqib qolishi mumkin, chunki ayni vaqtda bolani boshqa mashg'ulotlar ko'proq qiziqtirishi ham mumkindir.

Psixologlar shuni takidlaydilarki, agar uzoq vaqt iqtidorli bolaning intellectual yoki harakat ehtiyojlari qondirilmasa, bu bolaning his-tuyg'ulariga putir yetkazishi va asabiylashish holatlariga olib kelishi mumkin.

Agar bola iqtidorli bo'lsa, u holda:

- Uning qiziqishi, ijodkorligi, fikrlar originalligini qo'llab-quvvatlash kerak.
- Bolaning o'z sevimli mashg'uloti yoki o'yin turini tanlashiga va o'z fikrini bayon etishiga imkon berish lozim.
- Bola sizga emas siz unga moslashishingiz kerakligini unutmaslik kerak.
- Tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlardagi muammolarini bartaraf etishda yordam berish kerak.
- O'zi kabi har tomonlama rivojlangan do'stlari bo'lishiga ahamiyat berish kerak.

- Bolani har doim ham g'olib bo'lishiga ortiqcha intilmaslik lozim, aks holda boshqa bolalar, tengdoshlari uni yomon ko'rib qolishlari mumkin.

- Boladan har doim va hamma sohada birinchi bo'lishini, maktabda esa a'lochi bo'lishini talab qilish no'to'g'ri, maktabda a'lo baxolarga o'qish har doim ham iqtidorga bog'liq emasligi isbotlangan.

Iqtidorli bolalarning ota-onalari ba'zida qizim yoki o'g'lim o'z tengdoshlarini o'zib o'tib, masalan 7 yoshida 3-sinfda o'qishlariga intilish to'g'rimikan, degan savol bilan murojaat etadilar. Har bir holat o'ziga yarasha noyobdir, lekin shu o'rinda bolaning ijtimoiy hayotga moslashuvi haqida unutmazlik kerak. Axir u boshqa, o'zidan katta bolalar tomonidan qanday qabul qilinishi ma'lum emas-ku. U yakkalanib qolmasmikan?

Bolangizning boshqalar bilan muloqotiga va muloqotning ijtimoiy ko'nikmalarini korreksiya qiluvchi guruhiiy o'yinlarga ko'proq ahamiyat bering. Bunday o'yinlarni o'tkazishda faqatgina bilish jarayonlarining rivojlanishiga ahamiyat bermasdan, balki boshqa bolalar bilan birgalikda harakat qilishlariga ham e'tibor berish kerak.

Iqtidor bilish, o'quv, ijodiy, badiiy, harakatli faoliyat sohalarida namoyon bo'ladi. Iqtidorli bolaning o'quv faoliyatdagi yutuqlari uning erta yoshdan o'qishga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi. Ba'zida bolalar 3-4 yoshida, kattalarning yordamisiz mustaqil ravishda o'qiy boshlaydi. Bola kitoblarni tomosha qilishi, rasmlar asosida hikoya tuzishi, harflarni yozishi, kattalar o'qiyotganda uzoq vaqt sabr bilan tinglashi, o'z yoshiga mos bo'lmagan matematik amallarga qiziqishi, matematik belgi va ishoralarni tushunib eslab qolishi, ba'zida tabiatga, tabiiy fanlarga ham qiziqishini namoyon qilishi, turli predmetlarning kelib chiqishi va ularning vazifasi haqida savollar berishi mumkin. Badiiy faoliyat sohasida bola o'zini ertaroq namoyon etadi: erta rasm chizishni boshlaydi, ko'p vaqtini, masalan plastilindan turli narsalarni yasashga ajratadi, bunda o'zining mohirligini nomoyon etish orqali, ranglar, kompozisiyalarni to'g'ri tanlay oladi. Shuningdek, musiqaga ham erta qiziqish paydo bo'ladi, musiqiy tovushlarni ajrata oladi.

Harakatlantiruvchi sohadagi iqtidor bolada turli harakatlarni bajarish, ya'ni yugurish, sakrash turli akrobatik mashqlarni bajarish, muvozanatni saqlay olishda namoyon bo'ladi.

Bola turli yoki bitta sohada iqtidorli bo'lishiga qaramay, mana shu tabiat imkoniyatidan berilgan qobiliyatni o'z vaqtida aniqlab, uning rivojlanishiga yordam berishimiz kerak.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning dolzarb va katta istiqbolli yo'nalishlaridan biri-o'sib kelayotgan yosh avlod orasidan istedadli, zukko bolalarni saralash, ularni zamonaviy maktablarda boyitilgan, mazmunli dasturlar asosida o'qitish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish va tez fursatda xalq ho'jaligining turli sohalari uchun malakali mutaxassislarni yetishtirishdir.

Insoniyat o'zining ijtimoiy taraqqiyot jarayoni davomida intellektual mahsuli bo'lgan g'oya ham mulk ekanligini aniq va ravshan anglab yetadi. Intellektual mulk deb ataladigan bu boylik, har qanday turli sohalarning turli

ko'inishida o'z ifodasini topmasin, bu jamiyat taraqqiyotining asosiy omili, ma'naviy va moddiy boyligidir. Insoniyat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga qodir asosiy boylik egasi, intellectual mulk sohibi, aql zakovati cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan mukammla shaxs o'zining tafakkur bilan ijod qiladi, turli kashfiyotlarni yaratadi.

Shu sababli bugungi kunda ahloqan sof, mantiqiy tafakkuri kuchli, milliy madaniyati yuqori bo'lgan bolalarga e'tiborni kuchaytirish, ularni maxsus o'qitish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashmaqsadga muvofiqdir. Kelajak avlod, jamiyat ta'lim muassasalari bolalar orasida asosli ravishda iqtidorlilarni tanlab, ularni layoqati, qobiliyati va qiziqish yo'nalishlariga qarab u yoki bu sohaga, kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish ta'lim tizimi mutahassislarining oldida turgan eng asosiy vazifalaridan biridir.

Ta'lim tizimida iqtidorli bolalarni saralash va ularning bilim olishlarini to'g'ri tashkil etishda yechimini topishi kerak bo'lgan muammolar hali talaygina. Bu muaamolarni bartaraf etish uchun eng avvalo har bir pedagog, ota-ona va tarbiyachi boladagi istedodni ko'ra bilishi va uni his eta olishi lozim. Iqtidorli bolalarning o'ziga hosligi nimada?

Iste'dodning ilk ko'inishi bolaning yoshlik chog'idanoq namoyon bo'la boshlaydi. Bu bolada nutqning erta paydo bo'lishi va juda ko'p bo'lgan lug'at boyligidir. Ular tevarak atrofka sodir bo'layotgan voqeliklarga qiziquvchan bo'ladilar. Mutahassislarning e'tirof etishlaricha, iste'dodli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo'lib, ular uzoq muddatgacha bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni, ko'rgan-bilgan narsalarni eslab qolish va kerak aytida uni yana xotirada tiklash imkoniyatlafri kengdir.

Iqtidor yoki iste'dod asosan uch o'zaro bog'liq parametrlar bilan aniqlanadi: bilimlar darajasining rivojlanishdagi ustunligi, psixolog rivojlanish va fiziologik sifatlar.

Bilish jarayonlari:

Bir vaqtning o'zida bir necha ish bilan mashg'ul bo'lish, qiziquvchanlik darajasining kengligi, kuchli xotira va diqqatning bir joyga to'play olish imkoniyatining mavjudligi.

Psixologik rivojlanishi:

Hayolining o'ta rivojlanganligi, hissiyotlarda realikka moyillik kuchligi, xazil hissining mavjudligi, har qanday topshiriqlarni yechishga harakat qilishlik, ba'zida qo'rquv holatini oshirib yuborishlik hamda ularda egosentrizmning kuchliligi.

Fiziologik sifatlar:

Iqtidorlilarda ikki xil sereotip mavjud: biri ozg'in, kichkina, nimjon yoki uning aksi. Ular juda kam uxlashadi.

Iqtidorli bolalar bilan ish olib borishda nimalarga e'tibor berish lozim?

- Har bir boladagi qobiliyat o'ziga hos takrorlanmasdir. Ular turli narsalarga qiziqishlari mumkin. Oddiy muassasada musiqaga qobiliyati bor bolani

ham ajrata olmaslik mumkin. Ba'zi bir bola esa yuqori intellekti (IQ) bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o'zini baxolash mezoni juda past bo'lishi mumkin. Asosli ravishda har bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonlari o'rganilgandan so'ng ular bilan ishlash rejasi tuzilishi shart.

- Iqtidorli bolalar o'zlariga nisbatan juda talabchan va tanqidchan bo'ladilar. Qarindoshlarning a'siri iste'dodli bolalar uchun juda muhimdir, ular yaqinlarining fikrini inobatga oladilar. Yuqori intellect va rivojlanishning mos kelmasligi bolani ranjitishi mumkin.

- Iqtidorli bolalarning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o'rni juda kattadir. Agar oila, muassasa o'zaro doimiy aloqada bo'lsa bu eng yaxshi natija berishi mumkin.

- Iqtidorli bolalar uchun turli hil ish rejalarini ularning qiziqishlari va extiyojlarini inobatga olingan holda tuzilish lozim.

- Iste'dodli bolalarni o'qitish uchun tuzilgan rejani shu sohadan xabardori ishlab chiqish va bunda ota-onaning ham o'rnini ta'kidlab o'tishi lozim.

- Optimal dastur bolaning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini ta'minlashi zarur.

- Dastur qat'iyatlik va maqsadga intilishini rejalashtirishi kerak. IQ yuqori bo'lishi shart emas. Maqsadga intilish va boshlangan ishni oxiriga yetkazish muhimdir.

- Dasturning asosiy maqsadlaridan biri ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilganligidir.

- Iqtidorli bolalar bilan ishlashda tajribali, talantli tarbiyachi, pedagoglarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday mutaxassislar muassasaga ham, ota-onalarga ham juda zarurdir.

Iqtidorli bolalar bilan maxsus ishlar olib boorish ularni kelajakda o'z Vataniga, xalqiga foyda keltiradigan, uning nomini butun jahonga tanitadigan, olimlar, sportchilar, davlat arboblari, siyosatchilar sifatida tarbiyalab voyaga yetkazishga imkon beradi. Iqtidorli bolalar o'zlarini namoyon qilolmay qolib ketishlari, ularning qobiliyati yuzaga chiqmay qolib ketmasligi uchun harakat qilish va ular bilan muntazam ishlash lozim.

II-BO'LIM.

MTTDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN AMALIY TAVSIYALAR.

1. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI, MAKTAB, OILA, MAHALLA HAMKORLIGIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning isboti o'laroq 2018- yil maktabgacha ta'lim sohasida bolalar qamrovi 34,4%ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019-yil yarim yilligi yakunida 40,5%ni tashkil etdi.

Bu albatta davlat rahbarining maktabgacha ta'lim sohasida chiqarayotgan qarorlari va e'tiborlari natijasidir. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Qanday qilib ta'lim jarayonini mushkullikdan quvonchli jarayonga aylantirsa bo'ladi? Shuni aytib o'tish joizki, sifatli ta'lim birinchi navbatda ta'lim beruvchi tarbiyachi, pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqdir.

Albatta mashg'ulotlar tarkibiga yangiliklarni kiritish, ilg'or ish uslublari va metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga olib keladi. Bu esa o'z o'rnida pedagogdan kasbiy mahorat talab etadi. Barchamizgama'lumki, bola uchun birinchi va eng mukammal tarbiyachi bu ota-onadir. Shundayekan, oila bilan hamkorlik masalalari, ayniqsa bola tarbiyasida otalar o'rnini muhimligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mustaqillik yillarida mamlakatda ta'lim muassasalari faoliyatini me'yorlantiruvchi "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Ta'lim sohasida, jumladan uning birinchi pog'onasi sanalmish maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar yuzaga keldi.

"Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ularning ta'lim olishlari, qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rnini va javobgarligi oshirildi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi, uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqardi.

Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim tashkiloti yoki oilada maktab ta'limiga tayyorlash, unga qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish, bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ota-ona oldida turgan asosiy maqsad va vazifa, ya'ni ota-ona uchun ham qarz ham farzdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 30-sentyabrdagi PQ-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil, 21-noyabr 2-MX sonly buyrug'I asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kuzatuv kengashi ish boshladi.

Kuzatuv kengashi raisi ota-onalardan, kengash kotibi maktab o'qituvchilaridan, a'zolari MTT pedagoglari, ota-onalar, mahalla vakillaridan tashkil topdi. Bu esa MTTning yanada ravnaq topishi uchun ayni muddao bo'ldi. Kuzatuv kengashi MTTda bo'ladigan ta'lim-tarbiya jarayoni, uning moddiy texnik bazasi, bolalarga yaratilgan qo'shimcha xizmat turlari, bolalarni sifatli ovqatlantirishni, MTTdagi joriy ta'mirlashishlarida, hattoki, MTT rahbarini

saylashda o'z tavsiyasini berish huquqiga ega bo'ldi. Mahalladagi kam ta'minlangan oilalarni o'rganib chiqib, ularning farzandlariga MTTda ta'lim-tarbiya olish imkonini yaratdi.

Bola tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ota-onalar ni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynashi uchun o'yinchoqlar yasash, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir. Bunday tanlovlartar biyachining yillik ishreasida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar yig'ilishlarida muhokama qilish va ma'qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiiy va umumiy ota-onalar yrig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.

“Bolani qanday sevisish kerak?”, “Bola hayotida kitob”, “Bugun biz nima bilan shug'ullandik”, “Ota-onalar burchagi”, “Maslahat va tavsiyalar”, Ko'chma papkalar va boshqalar”. Bundan tashqari ruhshunoslar tomonidan tashkil etilgan testlarga murojaat etish ham foydadan holi emas. Masalan, “Biz qanday ota-onamiz ?”(Test) “Farzandimizningni hoyatda qiziquvchanligi” (Test).

Maktabga borish bola hayotidagi jiddiy o'zgarishlar davri hisoblanadi. Mazkur davr bilan bolaning rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Bolaning oldingilardan farq qiladigan faoliyat shakllarini o'rganishiga to'g'ri keladi. Kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarning boshqa uslubini o'rnatish, fiziologik jihatdan o'zgarishi ham talab etiladi.

Xo'sh, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak degan muhim savol yuzaga keladi.

Bolalarni maktabga muvoffaqiyatli o'qishi uchun ularni fanlar bo'yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o'qishga bo'lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o'zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma'lum darajasini shakllantirish lozimdir.

Ko'rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki uning maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo'lsak, uni oldinroq ham boshlash lozim. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba'zibir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo'lganidek, uni qisqa muddatichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga, kelishishga o'rgatish ham mushkul bir vazifadir.

Bolalarni maktabga chiqishda ularning yuqori imkoniyatlari va muvafaqqiyatini qanday ta'minlash mumkin?

Birinchi navbatda maktabga tayyorgarlik jarayonida o'quv faoliyatining maqsadli yo'nalishini o'zgartirish lozimdir. Bola tafakkurini shakllantirishning bu bosqichida mazmunli komponentlardan holio'laroq, rivojlantiruvchi komponentlar ustun turishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasi uslubchilari va pedagoglarining hizmatlari har bir bolani faoliyatga yo'naltira olishga, predmet va hodisalarning hususiyatlarini tahlil qila olishga, ya'ni, predmetlarni ko'rsatilgan belgisi bo'yicha tarqatish, farqini va umumiy hususiyatlarini ajrata olishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Maktabga tayyorgarlikning besh asosiy komponenti:

1. Motivatsion tayyorgarlik.
2. Irodaviy tayyorgarlik.
3. Maktabga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarlik.
4. Aqliy tayyorgarlik.
5. O'qishga layoqat

Bolalarni maktabga qanday tayyorlash lozim?

1. Kichkintoyning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jonu-dili bilan borishiga g'amxo'rlik qilish.

2. Bolaning yoshiga mos me'yorlar va yosh hususiyatlarini inobatga olgan holda talab qo'yish.

3. Bola xatti-harakatlar va so'zlar orqali sizni mehringizni sezishiga intilish.

4. Oilada uning uchun sharoit yaratish.

5. Ertak va she'rlar o'qib berish, rasm chizish. U bilan iloji boricha ko'proq suhbatlashish, turli mavzularni muhokama qilish. Sog'ligi va kayfiyatini muntazam kuzatib borish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bolani maktab ta'limiga tayyorlashda MTT, maktab, mahalla, oila hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim tarbiya sifati va samaradorligiga erishish va oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'z. Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.
2. O'.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.:1994-y.
3. Z.G'ofurov, S.Toshev. Ma'naviyat saboqlari. Qarshi. 1999-y.
4. Maktabgachata'lim-tarbiya muassasalarida amalyotchi psixologning ish dasturi. T.: 2000-y.
5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.

2.MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA,BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING AHAMIYATI.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev **“Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Kelgusi 3-4 yilda 5-6 yoshdagi bolalarni barcha maktabgacha ta’limga to‘liq qamrab olishga erishmog‘imiz shart. Bu ertangi kunimiz hal qiladigan masala va biz buni albatta amalga oshiramiz”** deya ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi [qarori](#) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [qaroriga](#) muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dastur asosida ta’lim –tarbiya jarayoni rejalashtiriladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tashkilotidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

- 1.”Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish;
 - 2.Dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni.
 - 3.”Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rni.
- Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi. . Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar ‘‘Ilk qadam’’davlat o‘quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadi.Bular quyidagilar

;1.”Til va nutq” markazi.(Nutq o‘stirish,tabiat,atrof-olam va badiiy adabiyot mashg‘lotlari)

2.”Qurish-yasash,konstruksiyalash va matematika” markazi.(Qurish yasash va matematika mashg‘ulotlari)

3.”San’at” markazi (Rasm,applikasiya,loy,qurish –yasash mashg‘lotlari va origami)

4.’Syujetli –rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan’ markazi.(Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar)

5.”Ilm – fan va tabiat” markazi.(Tabiat,atrof –olam bilan tanishtirish mashg‘lotlari)

Markazlardagi faoliyatlar tahlili

1 .“Til va nutq markazi”da bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari,mavzu asosida hikoyalar tuzish,savol javoblar qilish,bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud.Bola markazda o'zi hohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi mumkin.

2.”Qurish-yasash,konstruksiyalash va matematika” markazida bolalarda sensor tarbiya,ilodkorlik rivojlanadi.Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish –yasash ham matematika bilan shug'llanish imkoniyatiga ega.Bolalarni o'yin jarayonida tinglansa ‘Menga yashil rang kerak’,‘Men yasagan uycha ikki qavatli’,‘Seniki kichkina,meniki esa kattakon’,‘Meni mashinamga 10 ta odam sig’adi’degan jummalarni eshitasiz.Demak bolalar muloqatida qo'shish, ayirish, taqqoslash,kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi

3.”San’at “ markazida bolalarni kayfiyatini ko'tarish imkoni mavjud.Bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab –quvvatlanadi.San’atning rassomlik,haykaltaroshlik,turlariga hamma uchun ham iqtidor berilmagan.Bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi.Markazga kerakli jihoz to'liq qo'yilsa,yasash,chizish texnologiyalari ertalabki,kechki soatlarda o'rgatilsa,markaz ishi rivojlanadi.Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi.Markazda ishlasa bolaning mayda matorikasi rivojlanadi. Mayda matorikaning rivojlanishi esa,bolaning nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

4.”Syujetli –rolli o'yinlar va dramalashtirilgan” markazida bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi,o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qo'lay muhit.Bu markaz bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin.Markazlagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi,kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi.O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni mavjud.

5.”Ilm – fan va tabiat” markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish o'yg'otadi va yangi ixtirolar qilishga undaydi.Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markaz to'g'ri ishlatilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarni 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi.Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayrdan kelganligini,ulardan nimalar olinganligi haqida bilimga ega bo'ladilar.Bolalar o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug'unib chiqishi juda qiziqarli bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishi ularni maktab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk jismoniy,aqliy –ahloqiy,milliy qadriyatlar,urf-odatlariga sodiq

bo'lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi [qarori](#).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qarori](#).
- 3.. "Ilk qadam" qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
- 4.. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlah bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.
5. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'zRes.Xalqta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.

3. BOLALAR NUTQINI GRAMMATIK JIHATDAN SHAKLLANTIRISH.

O'zbekiston Respublikasi Prezident iSh.M.Mirziyoyev "Yoshlarni ezgu g'oyalar ruhida kamol toptirish murabbiylarining asosiy vazifasidir". "deya ta'kidlaydi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5 ta muhim tashabbus , "Davlat

talablari”, „Ilk qadam” o’quv dasturi asosida bolalarga bilim, ko’nikma, malakalar berib boriladi. O’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti boshlang’ich ta’limning poydevori sanaladi. Shu jihatdan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalardagi ishtirok va qobiliyatlarni aniqlash bilan bir qatorida badiiy adabiyotlarga bo’lgan qiziqishlarini oshirish, kitobxonlikni keng targ’ib qilish orqali bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar nutqining grammatik tomonidan shakllantirish qo’yidagicha amalga oshiriladi.

Tayanch tushunchalari : nutq ,ogizaki nutq ,muloqot ,fikir,til,til vositalari muomila ,madaniyat ,psixologik jarayon.

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi ,bilimlari,qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bulgan kattalar , muloqoti tufayli insoniyatning ko’p asirlik tajribasining uzlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi –til orqaligina berish mumkin . Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta’lim –tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini urgatish nutqini rivojlantirish nutqiy munosabatga muomalaga urgatishdir . Maktabgacha ta’lim tashkiloti da bolalar nutqini rivojlantirish buyicha quyidagi maxsus xususiy vazifalar amalga oshiriladi .

1. Bolalarni tevarak –atrof bilan tanishtirish ,nutqini ustirish ,boyitish
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish .
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash .
4. Suzlashuv nutqini (dialog) shakllantirish
5. Hikoya qilishga urgatish (monologik nutqni shakllantirish).
6. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish
7. Bolalarni boshlangich savodga tayyorlash .

Ushbu vazifalar har bir guruhdagi bolalarining yoshi va individual xususiyatlariga ko’ra quyidagicha taqsimlangan .

Kichik guruhlarda :

1. Tevarak –atrof bilan tanishtirish ,nutq ustirish lugatini boyitish
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. Suzlashuv nutqini (dialog) shakllantirish

5. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Ushbu guruhda hikoya kilishga urgatish (monolog nutqda) buyicha boshlangich ma'lumot berish belgilangan. Kichik guruh bolalari tarbiyachining hikoyasini eshitib .uning savollariga javob bera olishi ,mavzularidagi rasm yuzasidan suhbatlarda ishtirok etishi bilan birga ,avval eshitgan ertak va hikoyasini xotirasida tiklab uning mazmunini buzmasdan aytib bera olishlari lozim.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish , nutqini ustirish , lug'atini boyitish

Lugat ustida ishlash bolalarni tevarak –atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi.Bolalarni tevarak atrofdagi buyumlar, xodisalar usimliklar ,xayvonot dunyosi,kattalar mexnati va shu kabilar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini ,sifatlarini xususiyatlarini ,xarakterlarini so'zlar bilan aytamiz..Masalan, buyumlarni nomini anglatadigan : kuzgu ,taroq,sovun,tish va kiyim chutkalari ,palos gilam ,javon ,krovat ,xontaxta .Sabzavotlarning nomini anglatadigan - sabzi,karam, sholgom ,bodring , baqlajon,:usimliklar-,daraxtlar ,gul,ut va boshqalar : mevalar -

Olma,nok,olcha,gilos olxo'ri va xakozolar .

Uy xayvonlari : xo'roz .tovuq, ot,sigir,it ,mushuk, qo'y, eshak. ularning bolalarining nomini bildiruvchi : katta ,kichik,qizil ,sariq,ko'k,zangori ,oq.qora.issiq.sovuq ,shirin.achchiq va xakozo so'zlar bolalarni tevarak –atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar lugatiga kiritiladi. Buning natijasida ularning lugati boyitiladi,nutqi rivojlanadi.

Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.

Lugat tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so'zlarning o'zgarishi va ularning o'zaro boglanish usullarini belgilaydi . Bundan tashqari grammatika tilninng qurilish modelini (so'z yasovchi ,so'z uzgartiruvchi) belgilaydi.

Bola atrofdagilardan grammatik tomondan shakllangan nutqni eshitadi ,eshitgining ma'nosini tushunish bilan birga tilning grammatik tomonini egallaydi ,modelini bilib oladi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash

Bola eng avvalo ,tilning tovush tomonini egallashi kerak , ya'niy tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi lozim .Nutqning tovush tomoni ustida ishlashi o'zbek tilining fonetikasi va orfoepiyasiga asoslanadi . Bola kattalarga taqlid qilib so'zlarda urguni to'g'ri ishlatishga o'rganib oladi .Ona tilining intonatsion tomonini o'zlashtiradi hamda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga odatlanadi . Agarda tarbiyachi bola nutqidagi ,tovush talaffuzidagi nuqsonlar , ohang va tempga ,diksiyasiga (anik ,burro gapirish) nutqning mazmundorligi va ifodaligiga e'tibor bermasa

,bunday nuqsonlar bilan maktabga borgan bola bilimni o'zlashtira olmaydi . Bu uning kelajakdagi mustaqil hayotida ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi,ya'ni nutqida nuqsoni bo'lgan bolaning nutqi boshqalarga tushunarsiz bo'ladi. O'z fikrini ifodalashga qiynaladi , uyaladi , natijada gapirmaslikka harakat qilib indamas jizzaki bo'lib qoladi. .Bularning hammasi uning ruxiy rivojlanishiga ham ta'sir etadi.

So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish

Bolalarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir . Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so'zlashish kundalik faoliyatlari va turli voqea hodisalarni kuzatish natijasida hosil bo'lgan tushunchalarni aniqlash va uni tizimga solishga eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi . Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish bu boshqalarning nutqini tinglash va tushuntirish , so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar berish) . Bola so'zlashuvi nutqining rivojlangan lik darajasi uning lugat boyligiga tilning grammatik tomonini egallaganligiga bogliqdir.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish

Bolalar badiiy adabiyoti keng tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi .U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini imotsional ta'ssurotlarini boyitadi . Tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirar ekan u bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi .

1. Badiiy asarlarni tinglash va tushunish
2. Asar qahramonlarini hatti-harakatini baholaydi .
3. Insonlardagi ahloqiy sifatlar va nuqsonlarni ta'riflab berish

Adabiy asarning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish kichik hajmdagi sherlarni intonatsiyalarga rioya qilib yodlab olish va ta'sirchan qilib aytib berish va hokazo . Bola hikoya . she'r ertak tinglanayotganida quvonadi ,huzurlanadi . Bu emotsional ta'sirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish ya'ni uni san'at asari sifatida his etish qobiliyatining paydo bo'lishiga unda ahloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbatni tarbiyalash kerak.

Tarbiyachi nutqiga quyiladigan pedagogik talablar

Tarbiyachi har doim o'z nutqiga tanqidiy nuqtai nazardan qarashi , agar nutqida biror kamchilikni sezsa , uni darhol bartaraf etishga harakat qilishi lozim . Biroq u har doim ham o'z nutqidagi kamchilikni aniqlashga muvaffaq bo'lmaydi, chunki uning diqqati nutqning shakliga emas ,balki mazmuniga qaratilgan bo'ladi .

Bundan tashqari uzoq vaqtgacha o'z nutqiga ehtiyotsizlik e'tiborsizligi bilan qaraganligi tufayli ayrim kamchiliklar nutqiga mustahkam urnashib qolishi va bu nuqson uziga mutlaqo sezilmasligi mumkin . Buning uchun tarbiyachi

hamkasblarining ko'rsatmalariga amal qilishi va o'z kamchiligini bartaraf etishga harakat qilishi kerak

Tarbiyachi nutqining samimiy bo'lishi .

Tarbiyachi bolalar bilan ishlash jarayonida nutqining quyidagi jihatlariga e'tibor berishi lozim.

- Ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi;
- Sof, aniq –ravshan nutqqa ega bo'lishi ya'ni diskusiyasi yaxshi bo'lishi ;
- Bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda engil ,sekin tempdagi, o'rtacha baland ovozdagi nutqdan foydalanish .
- Bolalar bilan so'zlashganda baland tonda gapirmaslik ,qupol s'ozlardan adabiy til normalariga to'g'ri kelmaydigan mantiqsiz so'zlardan foydalanmaslik.

Xulosa . Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni birgina mash'gulot orqali hamda rivojlantiruvchi markazlarda nutqiy vazifalarni amalga oshirib b'olmaydi. Masalan: maishiy faoliyatga tabiat hodisalarga, q'ol mehnati va tabiatdagi mehnatga taalluqli s'ozlar faqat tabiiy holda bolalarning shaxsan ishtiroklari jarayonidagina ovqatlanish (ovqatlanish, yuvinish ,kiyinish ,usimliklarni parvarish qilish, tabiatda mehnat qilish va xokazolar) ular lu'gatiga kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. F.R.Qodirova «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruxiy omillari» Toshkent . «Istiqlol »2016 y .
2. D.R.Babaeva «Nutq ustirish metodikasi »Toshkent 2009y.
3. D.R.Babaeva «Nutq ustirish nazariyasi va metodikasi »'oquv q'ollanma TDPU 2016y.
4. "Ilk qadam "va "Davlat talablari"Davlat 'oquv dasturi 2018 y .
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M Mirziyoev tomonidan 2019-yil 20 martda yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish vaularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 muhim tashabbus.

4.MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI MILLIY AN'ANALAR VA QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH.

“Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordir. Ba'zilar tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiiy o'zgarmas”- deb aytdilar. Lekin bu so'z to'g'ri emasdur.

Mustaqillik to'fayli ijtimoiy-iqtisodiy,siyosiy- huquqiy sohalarda muhim o'zgarishlar ro'y berdi.Shu jumladan ma'naviy-ma'rifiy jabhada ham.O'zbtriston Respublikasi Prezidenti SH.M Mirziyoev tomonidan 2019-yil 20 martda yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish vaularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari so'rildi

.Birinchi tashabbus Yoshlarning musiqa,rassomlik, adabiyot,teatr va san'atning boshqa turlarigaqiziqishlarini oshirishga,is'tedodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus Yoshlarni jismoniy chiniqtirish,ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus Aholi va yoshlar o'rtasida komp'yuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish,ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Martabgacha ta'lim tashkilotida 5 ta muhim tashabbus ,”Davlat talablari”,”Ilk qadam”o'quv dasturi asosida bolalarga bilim,ko'nikma,malakalar berib boriladi.O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib shakillantirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti boshlang'ich ta'limning poydevori sanaladi.Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z o'rnida ota-onalar,mahalla,maktab bilan hamkorlikda ishlarni rejalashtirish lozim.Bolaning har tomonlama rivojlantirishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim\tashkiloti ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning qo'yidagi shakllarini tashkil etishi mumkin.

- Ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasasi borasidagi fikrlarini hisobga olish.
- Ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish.
- Ota-onalarni o'quv-tajribaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish.
- Ota-onalarni muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kommunikativ yondashuv.

- MTM ning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- Milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Bolaning maktabgacha ta'lim muassasasidagi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotii rahbari javobgar bo'ladi.

Bolalarga Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish.

Bolalarni shaxsini shakllantirish uning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, jismoniy tajriba ortirishini ta'minlash.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish.

Milliy bayramlar va ularni maktabgacha ta'lim tashkilotida nishonlash.

Har bir millat, elat va xalqning o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan ko'pgina bayramlari mavjud. O'rta Osiyo xalqlari jumladan, o'zbek xalqining o'z asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan bayramlari mavjud. Bular tabiat fasllari va hodisalari bilan bog'liq bo'lgan bayramlar: (Navro'z, mexrjon, Gul va qush bayrami), mehnat bayramlari: (Xosil bayrami, yersuv bayrami, Qovun sayli, Uzum sayli va boshqalar), madaniyat bayramlari: (San'at bayrami, ma'rifiy bayramlar), oilaviy bayramlar: (Sunnat tuyi, Nikox tuyi, Beshik tuyi va boshqalar), diniy bayramlar: (Ro'za hayiti, Qurbon hayiti) va boshqalar.

Milliy bayram har bir xalqning g'urur-iftixoridir. Mahmud Qoshg'ariy ularni "Shodlik va hursandchilik kuni" deb ta'riflaydi. Bunday shodlik kunlari xosiyatlidir.

1. Bayram hayotning davomi, muhim qismi: undagi eng yirik hodisa, voqea, sanalarni qayd etadi ularni ishonlash uchun kerakli imkoniyatlar yaratadi. Insoniyatning bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglashga, g'alabalardan faxrlanishga, ertangi kunga yaxshi rejalar tuzib, kelajakka katta umid bog'lashga yordam beradi.

2. Hayotning sidirg'aligini (bir xilligini) buzib, unga muayyan marom baxsh etadi. Shu sababli bayramlar qadimdan o'ziga xos vaqt o'lchovchi hisoblangan. Ular vaqt qadriga yetish, uni e'zozlash uchun sharoit yaratadi. Bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini aks ettiradigan kuzgudur.

3. Bayramlar ozodlik va erkinlik kuni hisoblangan. Bu kuni tenglik hukm surgan.

4. Bayram tinchilik kuni hisoblangan, urushlar to'xtatilgan.

5. Bayramlarda vujudga kelgan g'oyaviy-ruhiy ko'tarinkilik kishilarni ertangi kunga yaxshi umidlar bog'lash, porloq kelajakka ishonch bilan qarash, hayotni yanada go'zallashtirishga undaydi.

Tabiat bilan inson o'trasida munosabat asosida vujudga kelgan muhim tarixiy an'analardan biri Navro'zdir.

Yozma manbalarda Navro'zning qadimgi an'ana ekanligidan dalolat beruvchi bir qator rivoyatlar mavjud. Sharq yozma merosida Navro'z haqida eng to'la ma'lumotlar va aniq ilmiy xulosalar mutaffakir olimlar Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Qonuni Ma'sudiy",

“At-tafhim” asarlarida va Umar Xayyomning Navro’z nomli risolalarida yozib qoldirilgan.

Navro’z tantanalari qadimdan olti kun davom etgan. Turli xalqlar bu bayramni o’z hayotlarida eng yorqin kun deb bilib, uni shodu hurramlik bilan o’tkazganlar.

O’rta Osiyo xalqlari Navro’zni o’z an’ana, urf-odatlar bilan o’tkazadilar. Turkmanistonda butun qish ikki qismga-katta chilla, qirq kun (22 dekabr-dan-30 dekabrgacha) va kichik chilla yigirma ikki kun (to 22 fevralgacha)-qismlarga bo’lingan. 22 fevral odatda qishning oxirgi kuni hisoblanib, uni Chorvadorlar Navro’z nomi bilan nishonlashgan va mart oyining 17-22 kunlarida Dehqonlar Navro’zni bayram qilganlar. Navro’z kuni Turkmanistonda Navro’z taomlari sumalak, yorma (go’ja), holva (holvaytar) kabi taomlar pishirilib, xalq o’yin-kulgu qilgan: bolalar oq terak o’ynagan, ashula aytib qishloqni aylanib chiqqanlar, polvonlar kuch sinashganlar.

Har bir yaxshi an’ana avvalo zamonga mos bo’lishi bilan davomlidir. Bu an’analarni xalq qo’llab-quvvatlab tursa, har birini o’ziga hos fazilatlarini yetkazib tursa u abadiy yashaydi.

Navro’z, shuningdek, boshqa milliy bayramlar ham kishini ezgulikka chorlaydi, yaxshi hislatlarni tarkib toptirishga yordam beradi. Mexrjonni xalqimiz zo’r tantana bilan o’tkazgan. Abu Rayxon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Mexrjon” so’zini “quyosh” va “jon sevgisi” degan ma’nolar bilan bog’lab talqin etadi. “Mexrjon” bir tomondan, koinot va yerga jon ato etib turgan quyoshni qadrlashga, o’z nuri va harorati bilan hosil yetkazishga bergan yordami uchun minnatdorchilik bildirishga imkon yaratgan bo’lsa, ikkinchidan, barchani qish g’amini yeyishga undagan. Shu bilan birga, u kishilardagi muhabbat, rahm-shafqat, rahmdillik, g’amxurlik hislatlarini namoyon qiladi.

Bog’cha yoshidagi bolalarni kattalar hayoti bilan yaqindan tanishtirish, oila bilan hamkorlikda, ular ruhida o’tmishdan qolgan an’ana va odatlarni singdirib boorish eng dolzarb vazifalardandir. Yuqorida zikr etilgan bayramlar sirasiga kiruvchi milliy tantanalarni bog’chalarga o’tkazish, kichkintoylarni hayotga sodir bo’layotgan voqealar bilan yaqindan tanishtirishgagina emas, balki faol qatnashishlariga ham imkon yaratadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bayramlar ertaliklardan tashqari, mavzuli va turkum mashg’ulotlar, konsertlar, sayohat-ekskursiyalar tarzida o’tkazilishi mumkin.

Milliy o’yinlar

Ma’lumki, milliy o’yinlar mazmuniga ko’ra shu millatga mansub bola psixologiyasiga juda yaqin. Shu jihati bilan ham ular kichkintoylarni o’ziga tez jalb qiladi. O’yin esa bolalarning harakat faolligini oshiradi. Ya’ni bog’chalarga tegishli shart-sharoitlar bo’lishi, maydonchalar, guruh xonalari gimnastik mashg’ulotlar uchun zarur asbob-uskunalar bilan jihozlanishi, o’yinchoqlar bilan ta’minlanishi zarur.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning milliy o'yinlarga e'tibori nihoyatda kuchli. "Bekinmachoq", "Quvlashmachoq", "Chillak", "Zag'izg'on", "Oq terakmi, ko'k terak", "Aylanma darra", "Xolam mehmonga keldi" kabi milliy o'yinlar orqali bolalarning mustaqil faollik harakati oshadi. "Chitti gul", "Aytchi ,bulbul", "O'rta qo'limni top", "Qovun ekish", "Sartarosh", "Choyxonachi" singari o'yinlar bolani fikrlashga, har bir narsaga befarq bo'lmaslikka kattalar mehnatini taqlidan o'zlashtirishga undaydi.

Ko'z bog'lagich.

O'yinning maqsadi: bolalarning eshitish sezgilarini rivojlantirish hamda noqulay sharoitlarda ham o'zlarini yo'qotmaslikka o'rgatish.

O'yinning mazmuni: bir bolaning ko'zi ro'mol bilan bog'lanadi. U o'rtada turadi.

Bolalar: -Xola, nimangizni yo'qoldi?-deb so'rashadi.

Ko'zi bog'langan bola: -Angishvonam,-deydi.

Bolalar: -Men topdim, men topdim, deb har tomonga chopadilar.

Ko'zi bog'langan bola tovush kelgan tomonga qo'lini cho'zib, bolalarni ushlashga harakat qiladi. Ushlangan bola o'yindan chiqadi yoki uning ko'zini bog'lashadi. O'yin shu tariqa davom etadi.

O'yin qoidasi: 1. O'yinni zalda yoki ochiq maydonchalarda o'tkazish mumkin. Unda 10-15 nafar bola qatnashadi.

2. Ko'zi bog'langan bola ko'zini ochmaslik kerak.

3. Qo'li tekkan o'yinchi darrov to'xtashi kerak.

4. Har tarafga chopayotgan ishtirokchilar bir-birlarini itarmasliklari, tez yugurmaliklari lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki "Bir bolaga 7 qushni ota-ona " deydi bolajon xalqimiz, bunga javoban muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yer yuzida muqaddas degan so'zga munosib "zot bu –avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug'lab, ardoqlab yashaydi.

Shunday ekan maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni milliy qadriyat va an'analarimizga sodiq tarbiyalashda oila bilan hamkorlikda mahallada istiqomat qiluvchi nuroniy buvijonlarimiz bilan hamkorlikda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan " Davlat talablari ". 2018 yil 3 iyul.
2. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. 2018yil 7iyul
3. Z.G'ofurov, S.Toshev "Ma'naviyat saboqlari". Qarshi 1999 yil
4. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi "Maktabgacha tarbiya" jurnali 1992 yil. 1 son.
5. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi. O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Ma'rifat" gazetasi 2013 yil. 27.02

5.BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA INTERFAOL USULLAR VA MANTIQUIY O'YINLARNING AHAMIYATI.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichikligidan boshlab yaxshilik, oliyjanoblik, insonparvarlik, odamgarchilik, aql-idrokli bo'lish, odob-axloqlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, so'zamollik, xushso'zlik, ilmi bo'lish kabi hislatlar bilan boyitish inson kamolotining me'yori bo'lib kelgan. Chunki komil insonning ma'naviyati yuksak bo'ladi Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kishi esa o'z xalqining tarixi, urf-odati, qadriyati hamda an'analari, madaniyatini chuqur biladi va unga rioya qiladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etishto'g'risida"gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Ushbu tizim oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamra olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ahloqiy me'yori va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda "men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar. ("Ilk qadam" davlat o'quv dasturi-2018yil 3.1 Maktabgacha yoshdagi (6-7yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari)

Kommunikativ kompetensiya—muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalanabilish

O‘yinkompetensiyasi– bolaning o‘yin jarayonida unitashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya– hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi– atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

3.2. Bolaning rivojlanish sohalaridagi kompetensiyalari (3-bob. Davlat talablarining tarkibi. Toshkent-2018 yil)

Bolaning kompetensiyalarida bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Maktabgacha ta‘limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo‘sh vaqtlardan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi.

Jismoniy rivojlanish bo‘yicha o‘sishi, vaznining kuchini ortishi, sezgi a‘zolarining mukammallashuvi, harakatlarni to‘g‘ri boshqara bilish bilan bog‘liqdir. Ruhiy rivojlanishda esa bola shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Tarbiya jarayonidagi faollikasosida faoliyatning har-xil turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo‘lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyat, o‘yin, oddiy mehnat va o‘quv faoliyatlaridir. Eng asosiysi, bolani o‘yin tarzida rivojlantirish kerak. Dars qilgandek, uni majburlab rivojlantirish ijobiy natijaga olib kelmaydi. Maktabgacha yoshdagi bola har tomonlama rivojlana olsa, keyinchalik yutuqlarga erishishi oson bo‘ladi. (Maktabgacha pedagogika o‘quv qo‘llanma. T. Xasanova Toshkent- 2007 yil. 2-bob)

Shuni inobatga olgan holda tarbiyachilar vazifasi bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan ta‘lim imkoniyatlarini ta‘minlashdan iborat bo‘lib qoladi. Bolaning har tomonlama rivojlanishini

ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikdagi ishlari ham muhim sanaladi. Bular quyidagilarda o'z aksini topadi:

- ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi lozim. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak.

Xo'sh, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak? degan muhim savol yuzaga keladi.

Bolalarni maktabga muvoffaqiyatli o'qishi uchun ularni fanlar bo'yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni bolaga haddan ziyod yuklatish o'qishga bo'lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o'zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma'lum darajasini shakllantirish lozimdir.

Ko'rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki uning maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo'lsak, uni oldinroq boshlash o'ta muhimdir. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba'zibir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo'lganidek, uni qisqa muddatichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga, kelishishga o'rgatish ham mushkul bir vazifadir. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining savodxonligi muhim sanaladi.

Bola tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiyishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Bola bilimni o'z xohishi bilan o'zlashtirishi kerak. Agar istamayotgan bo'lsa, demak, ota-ona uni qiziqitirish yo'llarini topa olmayapti. Shuning uchun ota-onalar bolaning rivojlanishi uchun aynan uning kichikligidan sharoit yaratib, atrof-muhitni yanada qiziqarli qilib ko'rsatishlari kerak. Bu borada MTT ota-onalarga yaqindan ko'makchibo'ladi. Ota-onalarni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynashi uchun o'yinchoqlar yasash, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardandir. Bunday tanlovlartarbiyachining yillik ish rejasida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Tanlov

shartlarini umumiy ota-onalar yig'ilishlarida muhokama qilish va ma'qullab olish lozim bo'ladi. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim. (Bolaning maktabga tayyorgarligi. MTTda qisqa muddatli guruhlar tashkil etish. Tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening modul. Toshkent-2017yil)

Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.

"Bolaniqandaysevishkerak?", "Bola hayotida kitob", "Bugun biz nimabilanshug'ullandik", "Ota-onalar burchagi", "Maslahat va tavsiyalar", "Ko'chma papkalar va boshqalar" shular jumlasidandir. Bundan tashqari ruhshunoslar tomonidan tashkil etilgan testlarga murojaat etish ham foydadan holi emas. Masalan, "Biz qandayota-onamiz?". (Test) "Farzandimizning nihoyatda qiziquvchanligi". (Test).

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda mantiqiy o'yinlarning ahamiyati muhim sanaladi. Bulardan "Tez javob top", "Kasblarni o'rganamiz", "Figuralar nimaga o'xshaydi", "Ortiqcha so'zni top", "Kimning dumi uzunroq", "Daraxt va tarvuz" va boshqalardir.

Ortiqcha so'zni top

Maqsad: bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish. Tarbiyachi oldindan tayyorlab qo'ygan so'zlarini aytadi, tarbiyalanuvchilar esa qaysi so'z nima uchun ortiqchaligini izohlab berishlari kerak bo'ladi. Qoshiq, tarelka, qalam, sovun, tish cho'tkasi, olma, yoz, soat, daqiqa, ko'ylak, konfet, shim, qulupnay, pufak, malina.

Kasblarni o'rganamiz

Maqsad: bolalarda kasblarga nisbatan qiziqish uyg'otish, har bir kasb haqida tushuncha berish. Bola savolni tinglaydi, tarbiyachi o'sha savolni o'qib eshittiradi. Tarbiyalanuvchi savolga bir daqiqa ichida javob berishi kerak.

Taomni kim tayyorlaydi?

Kim uy quradi?

Kim she'r yozadi?

Kim bolalarni davolaydi?

Kim mashina haydaydi?

Kim kiyim tikadi?

Kim surat chizadi?

(Tarbiyachilar bu kabi o'yinlarni slaydlar orqali multimediya vositalaridan foydalanib tashkil etsalar bolalarga hamda ota-onalarga juda qiziqarli hamda ular uchun o'zlashtirish oson bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta'lim rivojlanmaydi. Tarbiyachining rivojlanishi esa, o'z ustida tinimsiz izlanishi, ta'lim-tarbiya jarayonida uyg'unlashtirgan holda yangiliklar

yarata olishi, xalq pedagogikasini chuqur bilishi bilan xorij pedagogikasi yangiliklarini o‘zlashtirib, ular vositasida o‘z faoliyatini boyitib borishi va amaliyotda tatbiq etib borishi bilan ahamiyatlidir. Maktabgacha ta’lim boshlang‘ich ta’limning muhim poydevori sanaladi. Poydevor mustahkam bo‘lsa imorat uzoq yillar qad ko‘tarib turadi. Shunday ekan kelajagimiz davomchisi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib, ta’lim-tarbiya berish bugungi kun pedagogining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglamog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgachada ta’lim vazirligi faoliyatini tashkilot sifatida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul.
3. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. 2018-yil 7-iyul.
4. T. Xasanova. Maktabgacha pedagogika o‘quv qo‘llanma. T.: 2007.
5. Tarbiyachi kitobi. Toshkent-2019. Mantiqiy o‘yinlar 136-141-betlar

6. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA 5 MUHIM TASHABBUSNING AHAMIYATI.

Maktabgacha ta’limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli, qiziqarli tashkil etish, ularning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlarning asosiy manbalarini bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional-tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Buning uchun innovatsion usullardan biri bo‘lgan “Keys study” texnologiyasidan maktabgacha ta’lim tashkilotida ham foydalanish tarbiyalanuvchini faol ta’lim olishga undaydi. Bu usulni qo‘llash orqali tarbiyachi bolani berilgan savolga to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi. Bolalarga ko‘proq kitob o‘qib berish, yoki kitob sovg‘a qilish ularni so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda xotirasi va tafakkurini o‘stiradi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2018-yil 20-martdagi “Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi 5 ta muhim tashabbusning 4-chisi “Kitobxonlikni keng targ‘ib qilish” ni aynan MTTdan amalga oshirish ayni muddao ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishda o‘ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarliklar bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish keng ma’noli tushuncha bo‘lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglarning, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki innovatsion bo‘lishi zarurdir. “Ilk va

maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhlarini o'ziga mos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o'ynab turib o'ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o'yinlarda aks ettiruvchi ta'limiy rivojlantiruvchi o'yin markazlarini tashkil etish, ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta'lim mazmunini oshiradi.

Tarbiyachilar vazifasi bolalar uchun qiziqarli bo'lgan va ularni ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlashdan iborat bo'lib qoladi.

Shuni ta'kidlash lozimki tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta'lim rivojlanmaydi.

Tarbiyachining rivojlanishi esa, o'z ustida tinimsiz izlanishi, ta'lim-tarbiyani uyg'unlashtirgan holda yangiliklar yarata olish, xalq pedagogikasini chuqur bilishi bilan xorij pedagogikasi yangiliklarini o'zlashtirib, o'z faoliyatini boyitib borishi va amaliyotda qo'llay olishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki maktabgacha ta'lim tashkilotida har bir pedagog tarbiyachining o'z oldida belgilab olgan asosiy vazifalaridan biri bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashdan iboratdir. Shu o'rinda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning ijrosini ta'minlash maqsadida MTT da bolalarni kichik yosh guruhlaridan boshlab ularga multimedia vositalari hamda keyslar orqali ertak qahramonlarini badiiy ifodalash bilan ularda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni shakllantirish va faollik markazlari orqali ularni kasbga yo'naltirish, shu bilan birgabolalarni maktab ta'limiga tayyorlash samarali jihatlaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariyasi jurnali. T., 2019. №5
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan" Davlat talablari. T., 2018.
3. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. T., 2018.
4. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi 5 muhim tashabbus. T., 2018

7. BOLALARGA MA'NAVIY-AHLOQIY JIHATDAN TA'LIM-TARBIYA BERISHDA ALISHER NAVOIY SHE'RIYATINING TUTGAN O'RNII.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi [qarori](#), hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son "2017 -2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qaroriga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan"

Davlat talablari”ishlab chiqildi. Bilamizki MTTda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda “Dolat talablariga asoslangan “Ilk qadam”Davlat o’quv dasturi 2018 yil 7 iyulda 4-hay’at qarori bilan ishlab chiqilib foydalanishga topshirildi. Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o’tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg’or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informastion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta’lim-tarbiyajarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishdao’ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarliklar bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish keng ma’noli tushuncha bo’lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki innavatstion bo’lishi zarur.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan” Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi asosida kompentensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o’ynab turib o’ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o’yinlarda aks ettiruvchi ta’limiy rivojlantiruvchi o’yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta’lim mazmunini oshiradi.

Shu o’rinda O’zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 2018 yil 20 martdagi “Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi 5 ta muhim tashabbusning 4-chisi “Kitobxonlikni keng targ’ib qilish”Maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlanishini aytib o’tish lozim.

Sababi, inson umri davomida oladigan bilimini 70% ini 5-7 yoshida olishi fanda isbotlangan. Xalqimizda “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, “Bir bolaga etti qo’shni ota-ona” kabi dono purhikmatli so’zlar bor. Bugungi kunda maktabgacha ta’limda bo’layotgan islohat va o’zgarishlar natijasida bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda maktab, mahalla, oila va Maktabgacha ta’lim muassasalari hamkorligidagi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki, Sharq mamlakatlarida yashagan, ijod qilgan va avlodlarga o’zlarining nodir ma’naviy meroslarini qoldirgan allomalar qaysi yo’nalishda ilmiy izlanish bilan shug’ullanishmasin, ulardan qolgan ma’naviy merosda, eng avvalo oila, oiladagi

bola tarbiyasi va shaxslararo munosabatga kirishishdagi odob-ahloq qoidalarga rioya qilish kabi fikrlar o'z ifodasini topadi. Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng yetakchi olimlari, buyuk allomalar hisoblangan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Uvaysiy, Nodirabegim, Furqat va Abdulla Avloniy kabi ko'plab olimu-ulamalarimizning qarashlari va ularning durdona asarlarida o'z ifodasini topganligi va hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy-pedagogik hamda psixologik bilimga ega ekanligini ularning asarlaridagi sharqona qarashlarida ko'rishimiz mumkin.

Milliy qadriyatlarimiz, jumladan shaxslararo munosabatga kirishishda oilaviy munosabatlarning ahamiyati to'g'risidagi fikrlar buyuk allomalar va tarixiy-ma'naviy merosimiz bo'lmish "Avesto"da, Urxun Enasoy bitiktoshlarida, Yusuf Xos Hojibning "Qo'tadg'u bilig", Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar", Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari",

Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarida, Boburiylar imperiyasining zabardast vakillaridan biri bo'lmish Akbarshohning ijtimoiy-pedagogik tajribasi bayon etilgan kitoblarida, jadidchilarning mafkuraviy asarlarida shaxs tarbiyasiga oid ko'plab fikrlarni aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

Barkamol avlodni tarbiyalash borasida Alisher Navoiyning adabiy merosi va uning ahamiyati buyuk ekanligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki A.Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarida butun hayoti davomida ko'rgan kechirgan voqealari, oddiy xalqning turmush tarzi, oilaviy urf-odat va an'analar, oiladagi yaxshi va yomon fazilatlar va shu asosida yozilgan hislatlar o'z aksini topgan.

Navoiy yozgan har bir asarida komillikka intiluvchi shaxsni va uning ijobiy fazilatlariga alohida e'tibor berishi, bu aynan oilada ota-onaning farzandiga beradigan ta'lim-tarbiyasi va uning mevasi ekanligi o'z aksini topadi. Adib o'z asarlarida ota-onaning yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Bunday sifatlarining ularda jamuljam bo'lishi, ya'ni oilaning to'liq bo'lishi keksalarning oilada bola tarbiyasiga ta'siri muhimligini aytib o'tadi. Uning qarashlaridagi bolalar tarbiyasidagi asosiy tayanch kuch bu-onalar ekanligini qo'yidagi fikrlari orqali ta'kidlaydi. *"Yaxshi xotin-oilaning davlati va baxti. Uy egasining xotirjamligi va osoyishtaligi undan. Xusnli bo'lsa, ko'ngil ozig'i, xushmuomola bo'lsa, jon ozig'idir. Oqila bo'lsa ro'zg'orda tartib-intojom bo'ladi. U beandisha bo'lsa ko'ngil undan ozor chekadi. Yomonlik axtaruvchi bo'lsa undan ruh azoblanadi. Agar mayxur bo'lsa, odobligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi"*.

Alisher Navoiy yuqoridagi izohlar orqali oilada onaning barchaga, ayniqsa, farzandlariga o'rnak bo'lishligi avvalo uning yurish turishi, muomala madaniyati, jamoat joyida o'zini tuta bilishi va agar farzandi uchun andaza bularli darajada yomon hulqli, illatli bo'lsa bu salbiy sabablarga aylanishini ta'kidlaydi. Ayniqsa ota-onalarning ma'naviyatidagi qusurlar sabab bolaning kamolotga kelishida qaytarib bo'lmas ayanchli nuqsonlar hosil qilishini aytib o'tadi. Bu adibning quyidagi baytida ham o'z ifodasini topgan:

*Kim kuchuk birla xo'tikka qilsa ming tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak bo'lmas aslo odami.*

Mazkur misralarda adib oilada ota-ona farzandiga qanday tarbiya bersa, ularning shunday muhitda o'sishi va ulardan andoza olishi qayta-qayta uqtiriladi.

Navbatdagi baytda:

*Ulga erur tiflga shoista ish
Bilki kichiklikda erur parvarish
Qatraga chin tarbiya etdi sadaf
El boshiga chiqquncha topdi sharaf*

Tifl – ya'ni bolani kichikligidan yaxshi tarbiyalash, sadaf qatoriga kirgan qayta durlar singaridir. Kimki farzandiga yaxshi tarbiya beribdi, demak odamlar orasida ulug'lanildi, e'zozda bo'lish sharafiga muyassar bo'libdi. Xuddi shuningdek ota-ona – sadaf, bolalar esa ularning bag'ridagi qatra – durlar.

Buyuk shoirimizning oilaviy qadriyatlar, mexr va muhabbat, oilada er-xotin munosabatlari, bola tarbiyasi, ota-ona va farzand o'rtasidagi zarur bo'lgan ijobiy fazilatlar borasidagi fikrlari ham pedagogika va psixologiya ilmida ahamiyati katta bo'lib, ularni mazkur soha vakillari ongli ravishda idrok etishlari, so'zsiz oilaga nisbatan to'g'ri tasavvurning shakllanishi orqali oilaviy hayotga tayyor va ma'naviy ozuqaga ega kelajak avlodni tarbiyalashlari lozimdir. O'tmish ajdodlarimiz merosidan Maktabgacha ta'lim muassasalari mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachilar unumli foydalanishlari, bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishlari, ularning ongida milliy qadriyatlarni faollik markazlari orqali singdirib borishlari maqsadga muvofiqdir. MTTda tashkil etilgan har bir mashg'ulotlar, sahna ko'rinishlari, o'gitlar, ruboiy va g'azallar bolalarda milliylikni yuzaga chiqarishni ta'minlaydi.

Tarbiyachilarning vazifalari bolalar uchun qiziqarli bo'lgan va ularning ijod qilishiga keng erkinlik beradigan ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashdan iboratdir. Guruhdagi mashg'ulotlar – bu umumiy o'yinlar, ovoz chiqarib o'qish, keyingi mashg'ulotlar va o'yinlarni rejalashtirish vaqtini ustalik bilan tanlash. Tarbiyachilar bolalarni mashg'ulotda charchaganini yoki harakatlari susayganligini sezganida mashg'ulotni o'zgartirishlari yoki to'xtatishlari lozim. Tarbiyachilar yoki ularning ko'ngilli yordamchilari bolalarga har kuni kitob o'qib berishlari ham yaxshi natijalar beradi.

Bu esa o'z navbatida tarbiyachining mahorati va oila bilan hamkorlikdagi ishlarni tashkil etishda muhim sanaladi. Bolalarga ahloqiy ma'naviy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya berish, oilada ota-onalarning butun hayoti, ularning fuqorolik qiyofalari, ma'naviy dunyosi va tarbiya negizida tashkil topadi. Shu o'rinda Navoiy aytganidek *“har bir inson yaratgan unga ne'mat sifatida berilgan fazilatlarining egasi bo'lmog'i, komillikka intilmog'i zarur. Ana shundagina u o'z insoniylik burchini bajargan, inson degan nomni oqlagan sanaladi”*.

Bolalarga o'rgatiladigan, pand-nasihatni ifodalovchi Navoiy o'gitlaridan namunalar:

*Oz-oz o'rganib dono bulur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.*

Olamdan g'amsiz o'tay desang ilmu xunar izla.

Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz.

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'lur.

Sihattila sangkam e, izzattila sangkam de.

Bu dog'i topmaguncha hazmikomil,

Badanni qilma ortiq yukka xomil.

A.Navoiy o'z davrining atoqli shoirlaridan ekanligini ta'riflab shoirlarimiz ham o'z she'rlarida uni quyidagicha madh etishgan.

*Tarixingdir ming asrlar ichrapinxon o'zbekim,
Senga tengdosh Pomiru oqsoch Tyanshan o'zbekim.*

*Mir Alisher Navoiy na'rasiga aks sado berdijaxon,
She'riyat mulkida bo'ldi shohu sulton o'zbekim.*

(E.Vohidov, "O'zbekim" qasidasidan)

Navoiyning ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlar quyidagicha:

*Hak yo'lida Kim senga bir xarf o'rgatmish ranj ila,
Aylamak bo'lmasa dooning xaqin yuz ganj ila.*

*Orazin yopg'och ko'zimdan sochilur xar lahza yosh,
Buylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.*

*Boshni fido ayla ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun kuniga aylagin nurufosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.*

Maktabgacha ta'lim muassasalarida Navoiy shaxsini bolalarga yaqindan tanishtirish yuzasidan tavsiya etilayotgan sahna ko'rinishlari

Boshlovchi: Alisher Navoiyning Mamatqul nomli qo'shnisi bo'lar ekan. Mamatqul aka umr bo'yi ishlab birgina uy qurolgan ekan. Uning Xudoberdi degan o'g'li bo'lib, u hech qayerda ishlamas ekan. Kunlardan bir kuni Mamatqul aka shoirning xuzuriga kelibdi:

Mamatqul: Xazrat o'zingizga ayonki men ancha yoshga borib qoldim. Bugun bo'lmasa ertaga omonatimni topshirishim mumkin. Sizga bir iltimosim bor.

Navoiy: Bajonidil q o'limdan kelsa bajarurman.

Mamatqul: Iltimosim shuki men bu dunyodan ko'z yumganimdan keyin o'g'lim Xudoberdi uyni sotadigan ko'rinadi. Nima qilib bo'lsa ham uni bu yo'ldan qaytarsangiz. Axir «Vatan gadosi – kafan gadosi» deb bejizga aytilmagan. Mendan keyin Xudoberdini bunday uyni tiklab olishiga aqlim yetmaydi. Kulbasiz ko'chalarda qolib xor bo'ladi.

Navoiy: Aytganingizday bo'ladi. Menga ishonavering.

Mamatqul: Bolam maboda kunim bitib qazo qilsam uyni aslo sota ko'rma. Bordiyu sotging kelsa Navoiy xazratlarining oldidan o'tib keyin sotgin. U kishi senga to'g'ri yo'lni ko'rsatadilar.

Boshlovchi: Shunday qilib Mamatqul aka olamdan o'tibdi. Xudoberdi uyni isotish taraddudini ko'rib qolibdi. Dadasining uyni sotging kelsa Navoiy xazratlarining oldidan o'tgin degani esiga tushib ketibdi. U qanday yo'l ko'rsatar ekan deb Navoiy oldiga boribdi.

Xudoberdi: Xazrat men biroz qiynalib qoldim. Uyni sotmoqchiman.

Navoiy: Yaxshi ammo tandirlaring biroz eski ekan. Buzib yangisini qur. Uyning narxi ikki barobar ortadi.

Boshlovchi: Xudoberdi uyga kelib qarasa tandirlari haqiqatdan ham eski ekan. U tandirchidan tandir sotib olibdida orqasiga qaytibdi. Yo'lda kelayotib unisindirib qo'yibdi. Xudoberdi orqaga qaytib yana bitta tandir sotib olibdi. Uni ham yulda sindirib qo'yibdi. Uchinchi tandirni bir ilojini qilib uyiga olib kelibdida quribdi. Ustiga ko'p loyboostirib yuborgan ekan, ertalab turib qarasa tandir tushib yotgan emish. Xudoberdining jaxli chiqib Navoiyning oldiga boribdi.

Xudoberdi: Xazrat tandirni qurolmadim. Mayli arzonga sotsam ham uyni tandirsiz sotaveraman.

Navoiy: Xovliqmay so'zimni eshit. Ko'rdingmi birgina tandirni ham qurolmadingku Yana uyni sotmoqchi bo'lasan. Uyni tiklolmay ko'chalarda qolib ketishingni o'yladingmi. Bor ishla. Uy ham yoningga qoladi. Tirikchiliging ham o'tadi.

Boshlovchi: Alisher Navoiyning aqlli va dono so'zlari bilan Xudoberdi uyni sotmagan ekan. Xudoberdi shunday qilib uyni sotmay yaxshi kun kechira boshlabdi.

Qissadan hissa shuki A.Navoiy bobomiz yoshlarni mehnatsevarlikka, o'zi mustaqil biror ishni bajarishga, oqil va dono bo'lishga, ertangi kuni yorug' bo'lishi uchun astoydil harakat qilish, o'tmishni o'rganmasdan kelajakni yaratib bo'lmasligini o'z davrida ifodalab bergan. Shu bois MTTda bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk siymolarimiz bosib o'tgan yullari va ular tajribasini o'rganish, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish bugungi kun tarbiyachisining o'z oldiga quygan asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, buyuk allomamizning bizga qoldirgan adabiy merosida yoshlarimizning sog'lom ruhiyatga, sog'lom fikrlashga, eng asosiysi, oila va oila orqali noyob qadriyatlarimizni bolalar ongiga singdirishga muhim ahamiyat qaratiladi. Shu sababli Maktabgacha ta'lim muassasalari oila bilan ishlash tizimini namunali yo'lga qo'yishi, ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etishi maqsadga muvofiqdir. MTTda ota-onalar bilan ishlash rejasining mavjudligi, nafaqat mavjudligi balki mazkur rejalar ular ishtirokida shakllantirilishi lozimdir. Tarbiyachi bolaning MTTda qabul qilingan ilk kunlaridan boshlab bolaning xarakter xususiyatini o'rganishi, psixolog maslahati va ota-onalar bilan

suhbatlashib, bevosita ular hamkorligida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etsa, bolalarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida ulg'ayishlarida katta hissa qo'shgan bo'ladi.

Bugungi kun talabi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir oila farzandlarini bu mening farzandim uni ta'lim-tarbiyasiga men ma'sulman deb qarash, oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri ekanini esda tutmog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2018-yil 20-martdagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi 5 ta muhim tashabbus.

2. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan" Davlat talablari. 2018-yil 18-iyun.

3."Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi 2018-yil 7-iyulda 4-hay'at qarori bilan ishlab chiqilgan.

4.Alisher Navoiy Mahbub-ul-qulub.-T., Fan. 1983y.

5. Safarov A, Mahmudov M. Oila ma'naviyati. T., Ma'naviyat. 2009 y

8. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH.

O'zbek adabiyotshunosligida Bobur shaxsiga *"U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli hislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi. Ushbu barcha fazilatlardan shijoat va muruvvati ustun turardi. Turkiy she'rni Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas"*-deya ta'rif beriladi.

Ilmu adabiyot osmoniga salmoqli hissa qo'shgan, o'zining g'oyat samarali faoliyati bilan tarixda o'chmas iz qoldirangan temuriylar avlodining so'nggi vakillaridan biri Umar Shayx Mirzo o'g'li Zahiriddin Muxammad Boburdir. U inson va adib madaniyat arbobi, sarkarda, e'tiqodi butun taqvodor shoh va rostgo'y adabiyotshunos, ota maqomida bag'oyat murakkab ziddiyatlar to'liqligini bilan yo'g'rilgan taqdir sohibi edi. Asrlar to'foni-yu bo'ronini pisand etmay insoniyatning yangi-yangi avlodlariga etib boruvchi mangulik uning nasibasiga bitib qo'yilgandi. Bobur saroy muhitida tarbiyalandi va o'qidi. Yoshligidan ilmga, she'riyatga berildi.Dovyurakligi, jasurligi va epcilligi tufayli uni "Bobur ya'ni "yulbars" deb atadilar. Bobur Mirzo shoir, adib, she'rshunos-adabiyotshunos, donishmand, fikrshunos (islom qonunshunos), tilshunos, tabiatshunos, mantiq va riyoziyot ilmlaridan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o'zidan bebaho ma'naviy meros qoldirdi.Ilm-fan va san'atning, umuman hayotning xamma sohalari bilan yaqindan qiziqdi. G'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste'dod Boburni rivojlangan feodal davrning ulug' siymolaridan biriga aylantirdi.O'tkir zehni Bobur Mirzo 9 yoshida savodini chiqardi. Qo'r'onni yod oldi, she'rlar yozib uni sharhlay boshladi. U yaxshilik shaydosi edi. Oxirgi nafasigacha ezgulik yalovini baland tutdi. Kechiruvchanlik Bobur Mirzoga ato etilgan noyob ne'matlardan biri edi.

Yuksak iste'dod sohibi bo'lgan Bobur 12 yoshida otasi vafotidan so'ng taxtni egallab podshoh etib tayinlandi. Bobur umrining oxiriga qadar o'zi ko'rgan hayotda guvoh bo'lgan jang suronlari, o'zga yurtdagi jahongashtaliklar, vatanni qo'msash, bolaga, oilaga qarindosh-urug'lariga munosabat masalalarini o'zining

tarixiy-geografik kitobi bo'lmish "Boburnoma" da bayon etdi. Zahiriddin Muhammad Bobur hayotlik paytidayoq o'ziga xos ma'rifiy maktab yaratdi. Bobur esdaliklar yozish maktabini "Boburnoma" asari orqali boshlab berdi. Boburning ta'lim nazariyasiga qo'shgan muhim xususiyati o'zi bilgan bilimlarni kelajak avlodga ilinishidir. Bu hol uni bashariyatga buyuk ma'naviy boyliklar qoldirishiga muvaffaq qildi. Undan meros bo'lib qolgan lirik she'riy asarlar "Boburnoma", "Muxtasar", "Mubayyin", "Volidiya" jaxon adabiyotshunosligi, ayniqsa, xalq tarbiya qonunlarida alohida o'rin tutadi. "Boburnoma" da keltirilgan ma'lumotlar, tarix, geografiya, adabiyotshunoslik bilan bog'liq bo'lib hozirgi davrda ham muhim ahamiyatga molikdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur murakkab umr yo'lini bosib o'tgan, xayotining asosiy qismini jangu jadallarda o'tkazishga majbur bo'lgan bo'lsa-da, adabiyot, san'at tarix va ilm-fanning turli sohalarida qimmatli asarlar yaratdi. "Boburnoma" da yozilishicha Bobur o'z farzandlarining ta'lim-tarbiyasi haqida hamisha qayg'urib, ularni o'qish va o'rganishga targ'ib qilar edi. U "Mubayyin" risolasida Humoyun va Kamronga diniy masalalarni o'rgatish uchun nazmda yozadi. Uning o'g'illariga yozgan maktublari ham ana shu mavzuga qaratilgan. Masalan u Kamronga yozgan maktubida *"Farzandi arshad va arjumandi saodatnishop Muhammad Komronga Mirzo bahodirga salomi muhabbat anjomidan so'ng ulkim ko'kaltosh va ichkilaring bila saboq o'qurza ruju' keltirub ermishsen. Bu jixattin ko'ngulga surur va xotirga huzur etib na bisyor xushhollik yuz berdi. Tangri taola dargohidan umidim borkim jami'i qobiliyat va salohiyat bobida komil va mukammal bo'lib kamolga etgaysen"*. Ko'rinib turibdiki Bobur farzandlarining diyonatli, ilm-fazilatli bo'lib o'sishi uchun ularga kitob tanlab yuborish ularning o'rganishi uchun kitoblar yozishni otalik va podshohlik burchi deb hisoblagan. Ularni o'qish o'rganishga tartib qilib, imlo va insho xatolarini to'g'irlab, bexato sodda va ravon, betakalluf yozishga chorlagan.

Bobur ijodida vatanga muhabbat ishki ma'rifatparvarlik foyalari juda go'zal va betakrok tarzda o'z aksini topganki biz uning asarlaridagi ana shu jihatlarini kayta-kayta murojaat etishimiz, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bobida ulardan o'rinli foydalanishimiz lozim. Ayni paytda Bobur ota sifatida ma'suliyatni chuqur anglashi ham ibratli bir holatdir. U farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. O'g'li Xumoyun Mirzoga ham padari buzrukvor, ham murabbiy sifatida g'amho'rlik qilib uning xatlaridagi imlo xatolaridan tortib, yurish-turishigacha yo'l ko'rsatib turishini "Boburnoma" dan olingan qo'yidagi lavhalardan ham anglashimiz mumkin. Bunday noyob durdona asarlar o'zbek adabiy tili, adabiyoti, ilm-fanining ravnaq topishiga beqiyos hissa qo'shdi.

"Iltifotni "to" bilan bitibsen, qulunjni "yo" bilan bitebsen, xatingni xud xar tavr qilib o'qisa bo'ladur, vali bu mutlaq atrofingdan maqsud tamam mavxum bo'lmaydur. Takalluf qilib deydin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti ham sanga tashvish ozroq bo'lo'r va ham o'quguvchiza". Darhaqiqat, Mirzo Boburning o'lkan qalb egasi ekanlagini, kechirimliligini, xalqiga ona-vataniga bulgan mehru-muhabbati cheksiz ekanligini uning yozgan har bir misralaridan ham ko'rib anglashimiz mumkin.

U o'ziga jafo etkazgan, hatto xoinlik qilgan ammo vaqti kelib o'sha nopokligini ro'yi-rost tan olib avf etishlarini o'tingan kishilarning gunohini kechib

yuborgan. Bobur Mirzo ba'zan ularga katta lavozimlarni ishonib topshirgan. Dunyo azoblari suyak-suyagidan o'tib ketgan ulug' sarkarda qolgan umrini taxt tashvishlaridan holi Agrada, o'zi barpo etgan bog'da badiiy ijod bilan o'tkazmoqchi edi. Ulug' shoirning mahzun yuragi so'nggi damlarda ham yaxshilikni qo'msagan.

Kim ko'ribdur, ey ko'ngil, ahli jaxondin yaxshilig'
Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'
Gar zamonni nayf qilsam ayb qilma, ey rafiq
Ko'rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig'.

Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy merosini o'rganish yoshlarda mehnasevarlik, olijanoblik, fan, madaniyat, san'at va ma'rifatga mehr uyg'otish kabi hislarni shakllantiradi. Boburning ijodi mukammal ijod samarasi sifatida avloddan-avlodga o'tib boraveradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik va psixologik tayyorgarliklar bilan ishlash davr taqozosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innavastion bo'lishi zarur. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida kompetentstiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o'ynab turib o'ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o'yinlarda aks ettiruvchi ta'limiy rivojlantiruvchi o'yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta'lim mazmunini oshiradi.

Maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo'sh vaqtlardan umunli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o'tkazilgan mashg'ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko'zda tutadi. Buning uchun innovastion usullardan biri bo'lgan "Keystadi" texnologiyasidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham foydalanish bolalarni faol ta'lim olishga undaydi. Bu usulni qo'llash orqali tarbiyachi bolani berilgan savolga to'g'ri javob berishga o'rgatadi.

Keys asosida mashg'ulotlarda bolalar faoliyatini turli shakllarda tashkil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, taklif etilayotgan vaziyat sahnalashtirilishi hamda muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va uning echimini izlash, turli musobaqa o'yinlari orqali bolalarni fikrlashga, fikrini to'liq nutqida ifodalashga o'rgatish mumkin. Bunda bolalar ishtirokini ta'minlash, ularni qiziqtirish, ruhiy ko'tarinkilik uyg'otish vaziyati yuzaga keladi. Keyslarning bir nechta turi bo'lib, maktabgacha ta'lim tizimida amaliy va ta'limiy keyslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xo'sh, MTTda bolalar Z.M. Bobur siymosi bilan qanday tanishtiriladi va tarbiyachidan talab etiladigan kasbiy mahorat qay tarzda amalga oshiriladi? Bobur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan "Bobur laqabi" (taxallusi), "Etim

qolmasin”, „Aql yoshda emas”, „Gʻazal va qilich”, „Bir gʻazal shahar olibdi”, „Shakarpalak”, „Boburiy palovi”, „Oqilona tadbir” kabi hikoyalaridan mashgʻulotlar jarayonida foydalanish, bundan tashqari adibning ruboiy va gʻazallari ham shular jumlasidandir.

Keysni bajarish jarayonida bolalarda quyidagi koʻnikmalar rivojlanadi:

- axborot qabul qilish va qayta ishlash (matnni tahlil qilish, muammolarni hal etish yoʻllarini qidirib topish va oʻyin tarzida echim izlash);
- kommunikativ (suhbat yuritish, boshqalarni ishontirish, oʻz nuqtai nazarini himoya qilish, oʻrtoqlarining xulq-atvorini baholash, oʻzini nazorat qilish);
- refleksiv koʻnikma (oʻzining va boshqalarning fikrini tahlil qilish);
- tarbiyachilar vazifasi bolalar uchun qiziqarli boʻlgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan taʼlim imkoniyatlarini taʼminlashdan iborat boʻlib qoladi.

Tarbiyachining mahorati bolalar uchun qiziqarli boʻlgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan taʼlim imkoniyatlarini taʼminlashdan iboratdir. Guruhdagi mashgʻulotlar bu umumiy oʻyinlar, ovoz chiqarib oʻqish, navbatdagi mashgʻulotlar va oʻyinlarni rejalashtirish vaqtini mohirona belgilash va bolalarni mashgʻulotda charchaganini yoki harakatlarini susayganligini sezganida mashgʻulot turini oʻzgartirishi yoki toʻxtatishi talab qilinadi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash lozimki, agar biz yuqorida sanab oʻtilgan Zahiriddin Muhammad Bobur siymosidagi farzandlariga kuyinchaklik hissini hozirgi oʻsib ulgʻayayotgan va kelajak avlodlarimizning bilim va tarbiya olish jarayoniga tadbiq eta olsak ularning oldidagi burchimizni qaysidir maʼnoda bajara olgan boʻlardik. Shu maʼnoda MTTLarning masʼuliyati oʻta kattadir. Zero ular taʼlim-tarbiya jarayoniga javobgar dastlabki (tayanch) taʼlim tashkilotlari sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyuk mutafakkirlar toʻgʻrisida hikoyalar. Oʻz. Res. Xalq taʼlimi Vazirligi. T., 2007.
2. Boburnoma T., 2011.
3. R. Voxidov Biz bilgan va bilmagan Bobur. T., 2008.
4. S. Moʻminova Zahiriddin Muhammad Bobur –Sharq va Gʻarb nigohida Qarshi., 2012.
5. Maktabgacha taʼlim metodikasi va nazariyasi jurnali. T., 2019. №5
6. Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyladigan” Davlat talablari. T., 2018.
7. „Ilk qadam” Davlat oʻquv dasturi. T., 2018.

Oʻzbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan „Yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish va ularni boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi 5 muhim tashabbus. T., 2018

9.MTTDA BOLALARNI MAKTAB TAʼLIMIGA TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim berishda kompetensiyaviy yondashuv oʻsib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni

hal qilish uchun zarur bo'lgan, ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda "men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innavatsion bo'lishi lozimligini talab etadi. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o'ynab turib o'ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o'yinlarda aks ettiruvchi ta'limiy rivojlantiruvchi o'yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta'lim mazmunini oshiradi

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari

Kommunikativ kompetensiya

muloqot vositalaridan turlivaziyatlarda foydalanib bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi— bolaning o'yin jarayonida unitashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya

hayotiy vaziyatlardakattalar vatengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalarini me'yorlarigari oyaqilgan holda o'zini tutalish mahorati.

Bilish kompetensiyasi

atrofdagi olamni ongiravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malakava qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish. **Bolaning rivojlanish sohalarik kompetensiyalari**

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- ☐ jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ☐ ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- ☐ nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

☐ bilish jarayonining rivojlanishi;

☐ ijodiy rivojlanish

Maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o'tkazilgan mashg'ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko'zda tutadi. Buning uchun innovatsion usullardan biri bo'lgan "Keys-stadi" texnologiyasidan maktabgacha ta'lim tashkilotida ham foydalanish bolalarni faol ta'lim olishga undaydi. Bu usulni qo'llash orqali tarbiyachi bolani berilgan savolga to'g'ri javob berishga o'rgatadi. Bolalarga ko'proq kitob o'qib berish yoki kitob sovg'a qilish ularni so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda xotirasi va tafakkurini o'stiradi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2019-yil 20-martdagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi 5 muhim tashabbusning 4-chisi "Kitobxonlikni keng targ'ib qilish"ni MTTdan boshlash zarurligini ta'kidlash lozim. Tarbiyachilar vazifasi bolalar uchun qiziqarli bo'lgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashdan iborat bo'lib qoladi.

Bolaning hartomonlari rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgachada ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikdagi ishlari ham muhim sanaladi.

Bunda:

☐ ota-

onalarining maktabgachada ta'lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;

☐ ilki rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;

☐ ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalbetish;

☐ ota-

onalarining tashkiloti hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashdan iborat

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish lozim. Xo'sh, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak? degan muhim savol yuzaga keladi.

Bolalarni maktabga muvoffaqiyatli o'qishi uchun ularni fanlar bo'yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o'qishga bo'lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o'zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma'lum darajasini shakllantirishdir.

Ko'rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo'lsak, uni oldinroq ham boshlash mumkin. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba'zibir topshiriqlarni mustaqil

qilishi qiyin bo'lganidek, uni qisqa muddatichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga kelishishga o'rgatish ham mushkul bir vazifadir. Bu borada, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining savodxonligi muhim sanaladi.

Shuni ta'kidlash lozimki tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta'lim rivojlanmaydi. Tarbiyachining rivojlanishi esa, o'z ustida tinimsiz izlanishi, ta'lim-tarbiyani uyg'unlashtirgan holda yangiliklar yarata olish, xalq pedagogikasini chuqur bilishi bilan xorij tajribasi yangiliklarini o'zlashtirib, o'z faoliyatini boyitib borishi va ularni amaliyotda qo'llay olishi bilan ahamiyatlidir. Maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'limning poydevori sanaladi. Poydevor mustahkam bo'lsa imorat uzoq yillar qad ko'tarib turadi. Shunday ekan kelajagimiz davomchisi bo'lgan yosh avlodga har tomonlama komil inson qilib, ta'lim-tarbiya berish bugungi kun pedagogining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglamog'imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan.

2. Maktabgacha o'shaqdaqi bolalar ilk rivojlaniqshiga q'yiladigan Davlat talablari .

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish vaularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.

5. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'z. Res. Xalqta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyo

III-BO'LIM.

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA NOAN'ANAVIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.

(6-7 yoshli bolalar uchun o'yinlar)

Qo'g'irchoq uchun gilamcha

Bolangizga geometrik naqsh bilan bezatilgan gilamcha tayyorlashni taklif eting. Qo'g'irchoq Lolaxon gilamni qanday bo'lish kerakligini aytib turadi.





Masalan: o'rtacha katta dira, tepada 4 ta to'rtburchak, pastda 4 ta uchburchak hamda 3 ta oval, ungda 3 ta tog'ri turtburchak bo'lishini hoxlayman,- deydi u. gilamni oddiy qog'ozdan shakllarni chizish yoki qirqib olish orqali tayyorlash mumkin.

Albatta, avvaliga bola qo'g'irchoqning buyurtmasini tayyorlab berishga qiynaladi, shunda qo'g'irchoqning talabini bolaga takrorklash zarur bo'lsa eslatib aytib turish kerak bo'ladi. Bola ish tartibini o'rnatib olishi unga rioya qilishi kerak-avval qog'oz o'rtasidagi keyin tepasidagi, so'ng pasti, undan keyin chap va o'ng tomondagi shakllarni joylashtirsin.

Shakllarni chizish, turli ranga bo'yash, qirqib yopishtirish bilan topshiriq murakkablashtiriladi.

Gilam do'koni

Agar bola bir necha gilamni tayyorlab ulgurgan bo'lsa mana bu o'yinni uyushtirin. Bola dokondagi gilamlar ichidan qo'g'irchoq Lolaxon iltimos qilgan naqshligini sotib olishi kerak. (Lolaxon topshirig'I avvalgi o'yindagi singari bo'ladi). Do'konga kelib qaysi gilamni olmoqchi ligini aytyotganida bolaning o'rtada, yuqorida, pastda, chapda, o'ngda degan so'zlarni qanchalik o'rinli ishlatishiga e'tibor bering.



nglik, bal

Bu o'yin bolani narsalarni umumiy kattaligidan tashqari, boshqa alohida o'lchamlari-uzunligi, kengligi, balandligi bilan ham tanishtiradi. Siz birorta predmetni tanlaysiz, masalan-stol. Uning uzunligiga teng qog'oz tasam tayyorlaysiz. Qaysi predmetni tanlab, tasma qirqqaningizni bola topishi kerak. Buning uchun u xonadagi narsalarning uzunligini shu tasma (shartli o'lchov) bilan o'lchab chiqadi. Keying safar tanlagan narsangizning balandligi, boshqa safar esa kengligini o'lchab tasma qirqasiz. Bola avvalgidek usulda siz tanlagan predmetni izlab topishi kerak. Bola shartli o'lchov bilan siz aytgan o'lchamni tekshirishi lozim. Shunga ahamiyat berib turning. O'yin jarayonida ro'llarni almashtirib turish mumkin.

Sehrli ranglar.

Rasm chizish paytida bo'yoqlarni almashtirib turli yangi ranglarni hosil qilish mumkin. Bo'yoqlar ichida guash turi buning uchun qo'lay hisoblanadi. Bola ranglarni almashtirish bilan osmonning turli paytdagi holatini tasvirlashga erishadi. Osmon-erta tongda boshqacha, kunduzi, kechqurun ham boshqa ranglarga kiradi. Bu holni kuk va ong bo'yoqlarni turli qo'yuqlikda aralashtirib tasvirlash mumkin.

Mana shu usulni yaxshilab egallab olishlariga, turli-tuman narsalarni shu yo'l bilan tasvirlashga intilishlariga harakat qiling, yutuqlari va qiziqishlarini rag'batlantiring.

Yashirilgan narsani top.

Bu o'yinda boladan biror bir predmetni og'zaki tavsif yordamida tasavvur qila olish talab etiladi. Bola o'zi ham u yoki bu narsani og'zaki tasvirlab bera olishi kerak. Biror o'yinchoqni yashirib, uning tashqi ko'rinishini tasvirlang. Og'zaki tavsifga muvofiq o'yinchoqni bola izlab topadi. O'yinni soddalashtirish uchun tasvirlanadigan o'yinchoqni yashirmaslik mumkin. Murakkablashtirish maqsadida esa bir-biriga juda o'xshash bo'lgan, faqat bir-ikkita jihati bilan farq qiladigan ikkita o'yinchoqdan birini tavsiflash talab etiladi.

Suratlar jufti.

Bir-biri bilan mazmun jihatdan bog'liq bo'lgan 7-8 juft surat tanlang. Ularni bola oldiga terib qo'ying. Masalan: o'rmon va daraxt; uy va deraza kabi juftliklar bo'lishi mumkin.

Bolaga juft so'zlarni diqqat bilan ko'zdan kechirishni taklif qiling. Unga suratlarning o'ng tomondagisiga ko'proq e'tibor berib eslab qolishi lozimligini o'qtiring. 1-2 minutdan so'ng suratlarni (o'ng tomondagi) olib qo'ying, chap qatordagilarga tegmang. Bola shu qolgan suratlarning juftini aytib berishi kerak. O'yinni soddalashtirish uchun unga o'ng qatordagi suratlar ko'rsatilishi mumkin. Murakkablashtirish uchun esa ko'zatishga beriladigan vaqtni qisqartirish, suratlar sonini ko'paytirish mumkin.


So'zlar jufti.

Bu "Suratlar jufti" o'yinining boshqa ko'rinishi bo'lib, bolaga 5-6 so'zni jufti bilan eslab qolishni taklif qiling. Masalan: mushuk-sut, bola-mashina, likopcha-konfet. Shu juft so'zlarni ikkinchisini eslab qolishni ayting.

Biroz fursat o'tgach juftlikdagi birinchi so'zlarni navbati bilan ayting bola ularning juftini topib aytishi lozim. Topshiriqni murakkablashtirish uchun so'zlar juftligini sonini ko'paytirish mumkin.

Sirlar.

Agar uyingizga yaqin joyda bog' yoki hiyobon bo'lsa "Sirlar" o'yinini tashkil etish mumkin. Bola ishtirokida uncha katta bo'lmagan maydon tasvirini chizing. Masalan, mana bunday korinishda:



1. O'yin paviloni
2. O'yinchoq raketa
3. Arg'imchoq
4. O'rindiq

5. Stol
6. Qum idish
7. Uycha
8. Sirpamchiq
9. Doira o'rindiq


Bolalarga sezdirmay biror narsani maydonchaga yashirib, tasvirda o'rnini belgilab qo'ying. Yoki bola o'zi biror narsani yashirib, o'rnini tasvirda belgilashi mumkin. Bu o'yinga boshqa bolalarni ham jalb etish mumkin. Unda musobaqa ham uyushtirsa ham bo'ladi, yashiringan predmetni kim tez ko'proq topishiga qarab g'olib aniqlanadi.


Eng quvnoq.

Bu o'yin uchun qalamlar yoki rangli bo'yoqlar qog'oz varaqlari kerak. Barcha qatnashchilarga biror quvnoq, kulguli narsani tasvirlash topshiriladi. Rasmda faqat predemetlar emas, turli rang va shakllar ham tasvirlanishi mumkin. Tayyor rasmlar ko'rib chiqilib, qaysi birining quvnoqligi belgilanadi.

Raqs tushayotgan odamchalar.

Qog'oz varag'iga bir necha qator qilib raqs tushayotgan odamchalarni chizing. Taxminan mana bunday:





Bu rasmlar ketma-ketlikda kelishi mumkin. Bolaga 8-10 minut moboynda shu rasmlarni ko'rib turish imkonini bering. Shundan so'ng unga harakat qilmayotgan odamchalarni qalam belgilab chiqish vazifasini bering.

Bolaga siz bilan musobaqalashishni taklif eting, bir-ikki bor atayin xatoga yo'l qo'ying. Shu xatoni topsa rag'batlantirishni unitmang.

Qaysi qo'limda nechta?

O'yinda bitta va undan ko'p ishtirokchi bo'lishi mumkin. Boshlovchi qo'lga 1 dan 10 gacha mayda narsalarni oladi (sanoq cho'plari, konfet, tugmalar, toshchalar...) va ularning nechtaligini ishtirokchilarga aytadi. Keyin qo'llarini orqaga o'tqazib predmetlarni ikkala qo'lga bo'lib oladi va bitta qo'lidagi narsalar sonini aytadi. Bolalar ikkinchi qo'lda nechta predmdet borligini aytishlari kerak. To'g'ri javob bergan bola boshlovchi bo'ladi noto'g'ri javob bergan bola shu songa tegishli harakat bajaradi.

DIDAKTIK O'YINLAR.

Mevalarni top.

Maqsad: tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

O'yin shartiga ko'ra, tarbiyachi so'zlarni ketma-ketlikda o'qiydi, tarbiyalanuvchi esa meva nomini eshitganda qarsak chalishi kerak. Masalan: karam, olma, nok, ukrop, olxo'ri, sabzi, o'rik, qulupnoy, kartoshka, apelsin.

Guruhlarga ajrat

Maqsad: bolalarni yahliliy fikrlashga o'rgatish, taqqoslash haqidagi bilimlarni boyitish.

Tarbiyachi ismlarni ketma-ket o'qiydi, tarbiyalanuvchi esa bu so'zlarga qanday nom berishni aytadi. Masalan, Aziza, Toxir, Malika, Rustam, Anvar bularni do'stlar deb nomlasak bo'ladi. Bo'ri, tulki, ayiq, yo'lbars, maymun-bularga qanday

nom beradi? Endi o'ziningiz "Idishlar" degan guruhga mansub so'zlarni ayting deb topshiriq berish mumkin.

Bu qaysi hayvon.

Maqsad: bolalarning atrofi olam haqidagi bilimlarini oshirish va ularni ijtimoiy hissiy rivojlantirish.

O'yinni birinchi bo'lib tarbiyachi boshlab beradi. U biror hayvon mimikalarini qiladi, unga o'xshab yuradi, ovoz chiqaradi. Bolalar esa tarbiyachi tasvirlayotgan hayvonning nomini uning uy yoki yovvoyi hayvon ekanligini u nimalar bilan oziqlanishini aytib berishlari kerak. Tarbiyachidan keyin guruhdagi ishtirokchilar navabtna-navbat huddi shu tarzda hayvonlarning hatti-harakatlarini ifodalab beradilar.

Ortiqcha so'zni top.

Maqsad: bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularda o'z fikrini yorqin ifoda qilish koinikmasini shakllantirish.

Tarbiyachi bolaga 3-4 dan iborat so'zlar ketma-ketligini o'qiydi. Bola o'sha qatordagi so'zning qaysi biri nima uchun ortiqchaligini izohlab berishi kerak. Misol uchun qo'yidagi so'zlar ketma-ketligidan foydalanish mumkin: sut, tvorog, qatiq, banan, sovun, tish pastasi, shampun, ruchka. Qalam, daftar, kitob, shaftoli. Soat, daqiqa, soniya, televizor. Kuylak, yupka, shim, atir. Qoshiq, sanchqi, likopcha, qalam.

Kimning bolasi.

Maqsad: bolalarning hayvonot olami haqidagi bilimlarini boyitish, ularning xotirasini rivojlantirish.

Tarbiyachi birorta hayvonning nomini aytadi. Bolalar esa uning bolasini aytishlari kerak. Masalan: tuya-butaloq, ot-toychoq, echki-uloqcha.

Hozir qaysi fasl?

Maqsad: bolalarni tabiat hodisalarini farqlashga fasllar haqidagi bilimlarni boyitishga o'rgatish. Ularda topqirlikni rivojlantirish.

Bolalar o'rindiqla o'tiradilar. Tarbiyachi har bir faslga hos belgi ifodalangan biror matn o'qiydi va bolalar bu hodisa qaysi faslda bo'lishini aytib beradilar. Masalan: "Biz mazza qilib chana uchdik". Bolalar qaysi faslda chana uchish mumkinligini aytib beradilar.

Nima uchadi?

Maqsad: bolarning hayvonlar, qushlar, hashoratlar haqidagi bilimlarni boyitish.

Bolalar aylana shaklida turadilar. Ularning orasidan bir bola o'rtaga chiqadi va biror buyum yoki qush nomini ayta turib ikkala qo'lini tepaga kutaradi. Agar u qush nomini aytsa qolganlar ham ikkala qo'llarini tepaga kutaradilar. Bordi-yu, buyum nomini aytsa unda kutarmaydilar. Kim yanglishsa o'yinni tark etadi.

Uchinchi orteqcha.

Maqsad: bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni meva va sabzavotlarni farqlashga o'rgatish.

Tarbiyachi so'zlar aytadi, bolalar ushbu so'zlarni qaysi biri v anima uchun orteqchaligini aytib berishlari kerak. Masalan: olma, nok, sabzi. Sholg'om, qulupnoy, o'rik.

Oxirgi harfini ayt

Maqsad: bolalarni eshitish va gapirish qobiliyatini rivojlantirish, ularni taqqoslashga o'rgatish.

Tarbiyachi so'zlarni oxirgi harfini aytmasdano'qiydi, bolalar esa uni oxirgi gapi bilan birgalikda ayta olishi kerak. Masalan: kara., olxo'r., mushu., kuchu., lavlag., dana., xurm., ko'ka., mandari., zur., pomido., bodrin., shaftol., malin., xazin., piyo., darax., atirgu..

MANTIQUIY O'YINLAR

Uchinchi orteqcha.

Maqsad: bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni meva va sabzavotlarni farqlashga o'rgatish.

Tarbiyachi so'zlar aytadi, bolalar ushbu so'zlarni qaysi biri v anima uchun orteqchaligini aytib berishlari kerak. Masalan: olma, nok, sabzi. Sholg'om, qulupnoy, o'rik.

Tez javob top.

Maqsad: bolalarni o'yin orqali mantiqiy fikrlashga, tahlil qilishga o'rgatish, kasbga qiziqishlarini oshirish.

Tarbiyachi avvaldan tayyorlab qo'yilgan kartochkadagi so'zlarni o'qiydi, bolalardan ma'no jihatdan mos keladigan so'zlarni toppish so'raladi. Kim ko'p javob bersa, o'yin oxirida rag'batlantiriladi. Bodring-sabzavot. Lola-... Nonushta-ertalab. Tushlik-... O'qituvchi-maktab. Kitob-... Qor-qish. Yomg'ir-... Aka-uka. Opa-... Baliq-suv. Qush-...

Qarama-qarshi.

Maqsad: bolalarda taqqoslashga, chamalashga o'rgatish, ularning so'z boyligini oshirish.

Bu o'yinda tarbiyachi so'zlarni o'qiydi, bola esa teskari ma'nosini topadi. Aynan o'zi topgan so'z ishtirokida gap tuzishi ham mumkin.

Masalan: oq-qora. Katta-... Semiz-... Keng-... Aqlli-... Yaxshi-... Quvnoq-

Kasblarni o'rganamiz

Maqsad: bolalarda kasblarga nisbatan qiziqish uyg'otish, har bir kasb haqida tushuncha berish.

Bola savolni tanlaydi, tarbiyachi o'sha savolni o'qib eshittiradi. Bola savolga bir daqiqa davomida javob berish kerak.

Taomni kim tayyorlaydi?

Kim uy quradi?

Kim she'r yozadi?

Kim bolalarni davolaydi?

Kim mashina haydaydi?

Kim kiyim tikadi?

Figuralar nimaga o'xshaydi?

Maqsad: bolalarning geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

Tarbiyachi avvaldan tayyorlab qo'yilgan geometrik shakllarni stol ustiga qo'yadi va boladan o'sha shaklning juftini topishni so'raydi. Bola uchburchakni uchburchak yoniga, aylanani yoniga, to'rtburchakni to'rtburchak yoniga qo'yadi. Tarbiyachi har bir shakl nimaga o'xshashini aytadi. Masalan, to'rtburchak g'ishtga, uchburchak esa uy tomiga, oval tuxumga, beshburchak yulduzga o'xshaydi. Ayni narsalarning suratini avvaldan tayyorlab bolaga surat orqali izoh berilsa, bu narsa bolaning xotirasida uzoq saqlanadi.

Kimning dumi uzunroq?

Maqsad: bolalarning shakl haqidagi tasavvurlarini o'rtirish, nutqini rivojlantirish.

Eshik taqillab xonaga ayiq, quyon, maymun, mushuk, niqobidagi hayvonlar kirib keladi. O'yin shartiga ko'ra, bolalar, qaysi hayvonning dumi uzunroq ekanligini, hayvonninig rangini, o'ziga xosligini aytib ta'rif berishlari kerak.

Daraxt va tarvuz

Maqsad: bolalarni sabzavot va mevalarni farqini ajratishga o'rgatish.

Bolajonlar, daraxtda qanday qilib tez uzib olish mumkin? (bolalar tarvuz daraxtda emas polizda o'sishini aytishlari kerak).

Xatoimni top

Maqsad: bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini ko'chaytirish.

Tarbiyachi bolalarga ketma-ketlikda gap o'qiydi, bolalar esa qaysi gapda xato borligini v anima uchun xato borligini aytib berishlari kerak. Yoz keldi. Komiljon bundan juda xursand bo'lib, darrov chanasini olib chiqdi. Malika esa boshiga qalpog'ini kiyib oldi. Feruza tarvuzni sovib tursin deb, suv tagiga qo'yib qo'ydi. Maxmud ariq bo'yida qo'lqopini kiyib olib chumildi. (Bolalar gaplardagi xatolarni to'g'irlab aytishlari kerak).

O'zing izla

Maqsad: Bolalarni katta va kichik tushunchalarni farqlashga o'rgatish.

Agar Akrom Malikaning ukase bo'lsa, demak, u Malikadan ... (kichik). Aziza Mohiraning opasi bo'lsa, demak, u Azizadan ... (katta). Fotima va Zuhra bir kunda tug'ilgan. Demak, ularning yoshi ... (teng).

O'ZBEK XALQ MILLIY OYINLARI

Tapur-tupur qayrag'och

O'yin mazmuni: qatnashchilar ikkita onaboshi saylab oladilar, so'ngra juft-juft bo'lib, "adashib keladilar:

-Ona, ona, kim ona?

-Biz ona

-Sizga osmondagi oy kerakmi? Kishnab turgan toy kerakmi?

-Menga osmondagi oy kerak.

-O'ting, bizdan ekansiz...

Shu tariqa ikki guruhga bo'linib, bir-birlariga qarama-qarshi holda, oraliqda 10-15 qadam masofa joyni bo'sh qoldirib, o'tirib oladilar. Har bir onaboshi o'z guruhidagi bolalarga biror nom qo'yib chiqadi. Bu daraxtlar, gullar, qushlar nomi bo'lishi mumkin.

Birinchi qator onaboshisi ikkinchi qatordagi biror bolaning ko'zini bog'lashni taklif etib, o'z qatoridagi biror bolaning (ramziy) nomini aytib chaqiradi. Chaqirilgan bola ko'zi bog'langan bola yoniga kelib, o'z ovozi o'zgartirib, nomini aytadi, ("Men atirgulman", yoki "Men terakman"), so'ngra o'z joyiga kelib o'tiradi, o'z qatoridagi bolalar esa unga yordam berish maqsadida:

"Tapir-tupur qayrag'och,

Tanlaganing olib qoch"-,

deb tizzalariga shapatilab uradilar. Qidirayotgan bola nomi aytilgan boladan uzoqroqda bo'lsa, past ovozda gapiradilar, unga yaqinlashgan sari ovozlarini balandlatadilar.

Agar qidiruvchi to'g'ri topsa, o'z nomini aytib qo'lga tushgan bolani etaklab o'z qatoriga qaytadi, topolmasa o'zi o'sha erda qoladi.

Dorbozlar o'yini

Tarbiyachi: (erda tekis yotgan arqon yonidan to'g'ri o'tishni o'rgatadi). Bu-dor. Karim dorboz. Dorboz dorda yuradi...

Karim, yur, yiqilma. Yaxshi, juda yaxshi! (dorboz haqida rus tilida tushuncha beradi). Bu vaqtda magnitafon qo'yilib, musiqa yangrab turadi).

Baka-baka-bang,

Dor o'ynang!

Esli upadyosh

Ne plach, avstan!..

Bolalar: ("dorbozlar qo'shig'i"ni birgalikda aytishadi).

Zag'izg'on

Maqsad: doira hosil qilib, yurish harakatlarini aniq va tog'ri bajarishga, tarbiyachining ko'rsatmalariga rioya qilishga odatlantish. O'yin so'zlariga rioya qilgan holda harakatlarni bajarish.

O'yinning borishi: Ikki ishtirokchi zag'izg'on rolini bajarib, xonaning bir burchagida turadilar. Qolgan bolalar xona o'rtasida qo'l ushlab, doira hosil qilishadi. Ular bir talay o'yinchoqlarni tasvirlaydilar. Hamma ishtirokchilar baravariga quyidagi she'rni aytib, uning ohangiga mos harakat qilib chuqqayib o'tiradilar:

Zag'izg'on tushib boqqa,

Chang solibo'yinchoqqa,
Chaqqonlik qilib tezda,
Uchib ketibdi toqqa.

She'ning birinchi va ikkinchi satrlari aytilayotgan vaqtda "zag'izg'onlar" burchakdan sakrab, o'yinchoqlar yoniga yaqinlashadilar. Sherning so'nggi ikki satri aytilayotganda, zag'izg'onlar boshlarini engilgina egib, hakkalab yuradilar va qanot yozib" uchib ketadilar". Bolalar ularni ushlashga harakat qilishadi. Ushlagan bola zag'izg'on vazifasini bajaradi. Agar o'yinda ko'pchilik ishtirok etsa, tarbiyachi- tartibsizlik bo'lmasligi uchun tutuvchi bolalarni oldindan aytib qo'yadi, ismi aytilganlarga zag'izg'onni tutish uchun doiradan yugirib chiqadilar.

O'yinning har bir takrorlanishida yangi tutuvchilar belgilanadi.

Chapak chalish

O'yindan maqsad: kichkintoylarni gullar, usimliklar, hayvonlar haqidagi bilim va tushunchalarini mustahkamlash. Chapak chalish orqali barmoq muskullarini chiniqtirish.

O'yinning borishi: o'yinda 10-15 bola qatnashishi mumkin. Qatnashuvchilar doira shaklida o'tiradilar. Onaboshi oldiga turgan bolaga "lola" desa chapak chaladi. O'z navbatida yonidagi bolaga "chinnigul" yoki boshqa biror gulni nomini aytadi. Agar qatnashuvchilardan biri avvalgilar aytgan gul, o'simlik va hayvonning nomini takrorlasa, u o'yindan chiqadi.

O'yinning qoidasi: 1. o'yin qaytadan boshlanganda uning mavzusi o'zgaradi. Avval o'simlik nomlari aytish tanlangan bo'lsa, so'ngra hayvonlar yoki boshqa narsalar nomi almashinadi. 2. o'yin so'ngida adashmay eng ko'p nom aytgan bola g'olib hisoblanadi. O'yin ikki qayta o'ynaladi. Ikkinchi bor o'ynalganda avval ishtirok etganlar qatnashishmaydi.

XALQ OG'ZAKI IJODIDAN NAMUNALAR

ALLA

Umrimning shirin oni,	Qizil gulning joni,
Oq bug'doyning noni,	Dilimning mehmoni.
Hamma yomon ko'rsayam,	Dardim olay o'zim,
Oyisining joni alla-yo, alla.	Onasining joni, alla-yo, alla

Sen boshimning bahori,

Sen umrimning nahori,
Sen qalbimning ohori,
Onasining shunqori, alla-yo,alla.

OVUTMACHOQLAR

Qizil gulning donasi,	Taqir-taqir ot keldi,
Ana,ana,onasi,	Chiqib qarang kim keldi?
Otasiyu onasining,	Oyog'I qora etikchali
Erkagina bolasi.	Mening ukacham keldi.

* * *

Inga-inga,
Yig'ladi bola
Qo'lchasiga
Tutqazdim lola

ERKALAMALAR

Feruzaxon oy qiz,	Hoy-hoy, chapakka-chapak
Kulgiga ko'p boy qiz,	Chapakisi kimga kerak?
Kulcha yuzi shirmoy qiz,	Otajoni bozor borsa,
Jushqinligi sho'x soy qiz.	Telpagi suvsari kerak.

QIZMACHOQLAR

Ana o'sha tog'midi,	Uy atrofi gulmidi,
Tog' yoqasi bog'midi,	O'sha gullar ichida,
Bog' yonida o'tmidi,	Sayyoraxon bormidi?!

SANAMALAR

Aziz ko'chaga chiqdi,
Aravasi buzildi.
Unga nechta mix kerak!
Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, etti-ketdi!

Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, etti, sakkiz,
To'qqiz, o'n, o'nu o'n,
Tulki to'ning bohosi-
Bir- ikki so'm!

RAMAZON QO'SHIQLARI*

Kiraversin davlat,
Chiqaversin falokat,
Omin olloh, inshoolloh.
Ramazon aytib keldim
Eshigingizga-yey,

Quchqorday o'g'il bersin
beshigingizga-yey,
Oq tanga, ko'k tanga,
Chiqara qoling, jon yanga...

* * *

Eshigingiz tagidan
Oy ko'rdim,
Hammadan sizni
Boy ko'rdim.

O'choqda kul,
Hamyonda pul,
Chiqara qoling
Bir so'm pul.

AXLOQ- ODOBGA OID HADISLARDAN NAMUNALAR

Kimki hadislarimni rivoyat qilishda yolg'onmikan, deb xayol qilsa, demak, u yolg'onchilarning yolg'onchisidir.

* * *

Munofiqlik belgisi uchta: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish.

* * *

Chaqimcnilik nima,bilasizlarmi?-U odamlarning gaplarini(ularning o'zaro munosabatlarini buzish niyatida)bir-birlariga tashimoqlikdir.

* * *

Tangri nazdida eng yaxshi gap-rost gapdir.

* * *

O'zinnga yoqqan narsalarni boshqalarga ham ravo ko'r.

* * *

Liboslringizni chiroyli qilinglar, ot ulovlaringizni yaroqli tutinglar! Uzdagi holdek odamlarga namuna bo'linglar.

* * *

Sabobli ish qilganizda xursand bo'lsangiz, gunoh ish qilganizda xafa bo'lsangiz, demak siz haqiqiy mo'mindirsiz.

* * *

Qaysi birlaringda jahlu g'zab qo'zisa, darhol u sukut saqlashga o'tsin.

* * *

Odamlarga taom ediringlar va shirin so'z bo'linglar.

* * *

Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, shunda odamlar ham sizlarga shunday bo'lurlar.

* * *

Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi.

* * *

Nonni e'zozlanglar.

Tangri go'zaldir, go'zallikni yaxshi ko'radi.

* * *

Tangri o'z bandalari ichida g'ayratlisini yaxshi ko'radi.

* * *

Qo'shni bilan yaxshi aloqada bo'linglar !

* * *

Qilib qo'yib, so'ng uzr so'raladigan ishdan saqlan.

* * *

Omonatni saqlab vaqtida qaytarish kishining risqini ziyoda qiladi. Omonatga hiyonat qilish esa qashshoqlik keltiradi.

* * *

Kishining go'zalligi-uning tilidan bilinur.

* * *

Hayoning butun vujudi yaxshidir.

* * *

Hayo doimo yaxshilik keltiradi.

* * *

Hayo-iymondandir.

* * *

Haqqingni xoh mukammal, xoh kami bilan bo'lsa-da, halol qilib ol!

* * *

Mo'min kishida qo'yidagi ikki hislat bo'lmasligi kerak: Baxllik va axloqsizlik.

* * *

Mo'minlarning yaxshisi-uning qo'li va tilidan boshqalar ozor topmaydiganidir.

* * *

Yaxshilikka dalolat qiluvchi bilan uni bajaruvchining savobi tengdir.

* * *

Muloyimlik-hikmatning boshidir.

* * *

Halol rizq toppish har bir mo'min uchun vojibdir.

* * *

Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir.

* * *

Odamlar bilan hushmomila bo'linglar. Odamlarga qattiq qo'llik qilib, behayo so'zlamanglar!

* * *

Hayirli va savobli ishlar insonni turli halokatlardan saqlaydi.

* * *

Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni Tangri do'zaxtgah mahkum etur.

* * *

Har bir qilinadiga yaxshilik sadaqa savobiga tengdir.

* * *

Yonida qo'shnisi och turib, o'z qornini to'y'azib yuradigan odam mo'mini komil emas.

* * *

Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.

* * *

Odamlar bilan murosah-yu, madorada bo'lish ham sadaqa hisoblanur.

* * *

Kishining bemani gaplardan tilini tiyishi-uning mo'minligi chiroyli ekanligidan dalolat beradi.

* * *

Kimki qilmishiga pushaymon bo'lib, uzr so'ragan odamni kechirib yuborsa, uning xatolarini ham Tangri qiyomat kuni kechirur.

* * *

Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi ! Tangri uning umrini uzaytiradi.

* * *

Kimki tangri nazdida o'zini kamtar tutsa uning martabasi va obro'sini ziyoda qilur.

* * *

Birovni yaxshi yo'lga boshlab qo'ygan odamga ham usha yo'lga tushib ketgan odam olayotganchalik savob yozilib borur.

* * *

Kimki odamlarga nisbatan noshukr bo'lsa tangriga nisbatan ham noshukr bo'lur.

* * *

Rahm qilmaganga rahm qilinmaydi, kechirmaganni kechirilmaydi va birovning uzrini qabul qilmaganning tavbasi ham qabul qilinmaydi.

* * *

Kimki birovga yomonlik qilsa, shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi.

* * *

Gunohiga pushaymon bo'lish ham tavba hukmidadir.

* * *

Ayollarni urmanglar!

* * *

Birodaring biror og'ir axvolda tushib turganda, sen uning ustudan kulma. Agar kulsang, Tangri unga marhamat qilib, og'irini yengil qilishi va uning kunini sening boshinga solib qo'yishi mumkin.

* * *

Mo'min mo'minning ko'zgusidir. Mo'min mo'minning birodaridir. Unga maishiy ishlarda yordamlashadi, yo'qligida moli va obro'sini himoya qiladi.

* * *

Vazifani o'z vaqtida kech qoldirib bajarish ham zulm turlariga kiradi.

* * *

G'azablanma! Badbaxt odamdagina rahm shavqat bo'lmaydi.

* * *

Uch kundan ortiq arazlashib yurish islomda yo'q.

* * *

Bir birlaringizga tuhmat va bo'hton qilmanglar!

* * *

Mo'min kishi birovning haqqiga hiyonat qilmaydi.

* * *

Ishni puxta va chiroyli bajaruvchi odamni Tangri do'st tutadi.

* * *

“Salom”-Tangrining yerdagi ismlaridan biridir. Bir birlariningiz bilan salomlashib yuringlar. Zeyro mo’min kishi odamlar oldidan o’tib borayotib, ularga salom bersa, ular ham alik olishsa, ularga salomni eslatgani uchun bir daraja ko’p savobga erishadi. Mabodo alik olishmasa, unga baribir, ulardan yaxshiroq va afzalroq zotlar, ya’ni farishtalar alik olishadi.

* * *

Ekmoq niyatida qo’lingizda ko’chat tutgan paytda, behostan qiyomat qoyin bo’lib qolishi aniq bo’lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo’ying.

* * *

Odamlarda taom yediringlar va shirin so’z bo’linglar.

* * *

Tishlaringizni misvok (tish tozalagich) bilan tozalab yuringlar va tozalikka odat qilinglar.

* * *

Odamlarga yaxshilik qilish va qarindoshlar bilan yaqin aloqada bo’lib hol axvol so’rashib turish-bu savobi tez tegadigan hayrli ishlardandir. Zulm va qarindoshlardan uzilib ketishlik esa, jazosi tez bilanadiga yomon ishlardandir.

* * *

Tangri g’am tashvishli odamlarga yordam beradiganlarni do’st tutadi.

* * *

Yaxshilikka dalolat qiluvchi bilan uni bajaruvchining savobi tengdir.

* * *

Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so’ng otangga yaxshilik qil.

* * *

Muloyimlik har bir narsaga ziynat beradi. Qaysi narsada u bo’lmasa, u narsa buziladi.

* * *

Qaysi bir mo’min biror ekin eksa, yoki mevali daraxt o’tqazsa-yu, ulardan qushlar, odamlar yoki hayvonlar yesa, bu uning uchun sadaqa hukmida bo’ladi.

MAQOLLAR.

Avval o’yla, keyin so’yla.

Avval salom-keyin kalom.

Aybiga iqrar-mard kishi.

Yashirmoq-qo’rqoq ishi.

Aybsiz do’st izlagan dos’tsiz qolar.

Ariqni suv bezar, odamni- so'z.
Arpa-bug'doy osh bo'lur, oltin kumush tosh bo'lur.
Arslan izidan, Botir so'zidan qaytmas.
Aql-yoshdan, odob-boshdan.
Aql-kuchdan ustun.
Aqlli do'stini suyar.
Axmoq maqolni sevmay.
Axd qilgan baxt topar.
Baliq suv bilan tirik, odam-el bilan.
Baraka-inoqlikda, Boqiylik quvnoqlikda.
Baxt kulgu bor uyga kirar.
Baxt garovi-do'stlik.
Baxt g'oyibdan kelmas, Uni qo'ling bilan yarat.
Baxorgi harakat-kuzgu barakat.
Besh barmoq yig'lsa, musht bo'lar.
Bir yigitga yetmish hunar oz.
Bir yil tut ekkan kishi qirq yil gavhar terar.
Bir qizga yetti qo'shni ota-ona.
Bitta gairib. Ikkita eshit.
Bodom po'sti bilan, odam do'sti bilan.
Botir topsa bo'lib yer, baxl topsa bekitib.
Boshinga qilich kelsa ham, to'g'ri so'yla.
Boqqa bulbul yarashar, odamga-aql.
Bog'ni boqsang-bog' bo'lur, botmon dahsar yog' bo'lur.
Bugungi ishni ertaga qo'yma. Ertaning ham o'z ishi bor.
Bulbul chamanni sevar, odam vatanni.
Vatan sevgisi ortar, mehnat sevgisi tortar.
Vataning tinch-sen tinch.
Vaqtning bor-naqtning bor. Vaqtning ketdi-baxting ketdi.
Gul o'ssa-yerning ko'rki, qiz o'ssa elning ko'rki.
Go'zallik- yuzda emas, dilda. Davlating-ota-onang.

Danakni danak dema, unda azim daraxt bor.
Dangasa ishdan qochar, mehnat ishtaxa ochar.
Do'st ming bo'lsa ham-oz, dushman bir bo'lsa ham-ko'p.
Do'stlik-barcha boylikdan afzal.
Darxat yaprog'i bilan ko'rkam, odam-mehnnati bilan.
Do'st-do'stning oynasi.
Dili to'g'rining tili to'g'ri, tili to'g'rining yo'li to'g'ri.
Dilning kaliti-til.
Duo bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar.
Duo olgan omondir, qarg'ish olgan yomondir.
Yerga mexr-elga mexr.
Yozgi mehnat, qishki rohat.
Yolg'on uyaltirar, rost suyuntirar.
Yolg'onning umri-qisqa.
Yolg'onchining rost so'zi ham yolg'on.
Yomon tuzalsa-zamon tuzalar.
Yomonlardan yiroq bo'l, yaxshi bilan inoq bo'l.
Yomonlikni yaxshilik bilan yeng.
Yoshga- hizmat, keksaga-hurmat.
Odam bo'laman desang, ona tilingni sev.
Jaxl dorisi-sukut.
Ish boshlaganda maqtanma, ish bitganda maqtan.
Izzat tilasang ko'p dema, sihat tilasang, ko'p yema.

TOPISHMOQLAR.

Onasi bitta-bolasi mingta

(Oy va yulduzlar)

Ketaveradi,ketaveradi, orqasiga qaramaydi.

(Suv)

O'tda yonmaydi, suvga yonmaydi.

(Muz)

Qanoti yo'q uchadi, oyog'i yo'q qochadi.

(Shamol)

Vov-vov deydi baqiradi, tug'ishganin chaqiradi.

(It)

Uzun quloq kalta dum.

(Quyong)

Qochdi, qurg'onga kirdi.

(Sichqon)

To'rt oyoqli temir tuyoqli.

(Ot)

Quyong emas, uzun quloq. Ot emas to'rtta tuyoq.

(Eshak)

Boshi taroq, dumi o'roq.

(Xo'roz)

Kasbi doim taqur-tuqur, qayda ilon ko'rsa chuqir.

(Laylak)

Bu jonivor beozor, usti nuqul tikanak. Koptok deysiz bemalol bo'lib qolsa g'ujanak.

(Tipratikon)

Ko'rinishi- arqon, qo'l-oyoqsiz chopar.

(Ilon)

Beli qildik, boshi humdek.

(Chumoli)

Qanoti bor, uchmaydi, Quruqlikda yurmaydi.

(Baliq)

Tur ustida yashaydi, pashshani o'rab tashaydi.

(O'rgumchak)

Pishirsa osh bulur, pishirmasa qush bulur.

(Tuxum)

Makonidir dalalar, yer tagida bolalar.

(Kartoshka)

To'ni-silliq, tuki yo'q, ichi-qizil, ko'ki yo'q.

(Tarvuz)

Qat-qat tunli qarich bo'yli.

(Karam)

Yer tagida oltin qoziq u hammaga bo'lar oziq.

(Sabzi)

Urmasdan yig'atar.

(Piyoz)

Yozda kiyinadi, qishda yechinadi.

(Daraxt)

O'zi shirin, tukligina mazasi bor, totligina.

(Shaftoli)

Mallagina tuni bor, nordongina ta'mi bor.

(Behi)

Osti sariq, usti sariq, shirin, totli, ichi tariq.

(Anjir)

Sariqligin zar dedim, totib asal qand dedim.

(O'rik)

Kichkina dikcha-ichi to'la mixcha.

(Anor)

Qorday oppoq, yungday yumshoq.

(Paxta)

TEZ AYTISHLAR

Tohir tungacha top tepdi.

Sa'va saxarda sadada sayraydi.

Pirpirak pirillaydi, chirildoq chirillaydi.

Tolib tandir tagidan tanga topdi.

Oq choynakka oq qapqoq, kuk choynakka kuk qopqoq.

Lola allalaydi, sora arralaydi.

Qurilishga terak kerak, demak, ekmoq kerak terak.

Juja cho'chib go'ja chuqur.

Tohir tog'a tog'da tulki tutdi.

Asad asl asal saqlaydi.
Boqi Botir buzoq boqar.
Halimani sanama. Salimani sana.
Sotvoldi bosvoldi, qovun sotib oldi.
Guli guldonda gul keltirdi.
Toshmat toshni tog'dan tashidi.
Tez aytginu, tez gapir, tez aytganga bir patir.
Oydin oyni oynadan ko'rdi.
Tok tagida tovuq tuxumi turibdi.
Tursin tunda tura tursin.
Qalpoqni top, qapqoqoni yop.
G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.
Salim sochiqqa sochini artdi.
Salimning sadadagi sap-sariq sa'vasi sahar sayraydi.
San'at saroyi-saroylarning sarasi.
Sayyora sabzini savatga soldi.
Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish.
Qo'ng'iroq qo'zichoqnikimi, qo'g'irchoqnikimi?
Qurilishda burilish, burilishda qurulish.
Oltin o'tloq-oq o'tloq.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Jumladan, “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o’rni beyqiyos. Bugungi kun tarbiyachilari kelajagimiz bo’lgan yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashlari uchun o’z ustilarida tinimsiz ishlashlari, turli xil metod va usullardan foydalanishlari lozim.

Buning uchun tarbiyachidan turli xil yangiliklarni joriy etgan holda zamon talabiga mos, milliy an’ana va qadriyatlarga tayanib mashg’ulotlar tayyorlash, bolalarni dunyoqarashini o’stirish maqsadida sayohatlar uyushtirish, ularga aqliy-ahloqiy jihatdan ta’lim-tarbiya berishda bolalar bilan birgalikda mashg’ulotlar uchun ko’rgazmalar tayyorlash jarayonlariga alohida e’tibor qaratishlari talab etiladi.

Bolalarni kelgusida maktab ta’limiga chiqqanda bimalol o’qib o’zlashtirishlari uchun ota-onalar bilan hamkorligida maktabgacha ta’lim tashkilotida ishlarni tashkil etishda tarbiyachilar o’rni muhim sanaladi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-BOB. BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIMGA TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	
1.1. Maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida.....	5
1.2. Maktabgacha ta'limga kirish	9
1.3. MTTda kundalik faoliyatni integratsiyalashgan holda rejalashtirish: Natija qanday?	17
1.4. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishda o'yin faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	21
1.5. Bolalarda ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy muloqot malakalarini qo'llash.....	24
II-BOB. MTTDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN AMALIY TAVSIYALAR	
2.1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, oila, mahalla hamkorligida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash.....	45
2.2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati.....	49
2.3. Bolalar nutqini grammatik jihatdan shakllantirish.....	53
2.4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni milliy an'analar va qadriyatlar ruhida tarbiyalash.	58
2.5. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda interfaol usullar va mantiqiy o'yinlarning ahamiyati.	64
2.6. Maktabgacha ta'lim tashkilotida 5 muhim tashabbusning ahamiyati.....	70
2.7. MTTda bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirishning amaliy ahamiyati	72
2.8. Maktabgacha tayyorlov guruhida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi bilan tanishtirishning amaliy ahamiyati	80
2.9. MTTda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvlar	85
III-BOB. BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA NOAN'ANAVIY O'YINLARDAN FOYDALANISH. (6-7 YOSHLI BOLALAR UCHUN).....	90
3.1. Didaktik o'yinlar.	96
3.2. Mantiqiy o'yinlar	98
3.3. O'zbek xalq milliy o'yinlari	
IV-BOB. XALQ OG'ZAKI IJODIDAN NAMUNALAR	
(Alla, ovutmachoqlar, erkalamalar, qizmachoqlar, sanamalar, ramazon qo'shiqlari, axloq-odobga oid hadislar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar).....	101
Xulosa.....	121
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	122

Alimova Zulfiya Karimovna

“MAKTABGACHA PEDAGOGIKA”

(o'quv qo'llanma)

Bosishga ruxsat etildi, 18.08.2021 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman

garniturasida terildi.

Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.

Nashriyot hisob tabog'i 8.5, Adadi 40. Buyurtma № 07

Bahosi kelishuv asosida

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika

universitetining bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko'chasi 27 uy.



Bugungi kun talabi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir oila farzandlarini bu mening farzandim uni ta'lim-tarbiyasiga men ma'sulman deb qarash, oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri ekanini esda tutmog'imiz lozim.

00:12 ✓✓

